

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ZARMASOV SHAHBOZ SHAHRIDDIN O‘G‘LI**

**O‘ZBEK TILI SO‘Z TURKUMLARINI MODELLASHTIRISH TAMOYILLARI  
(Ot so‘z turkumi misolida)**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qo‘qon – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Contents of Dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Zarmasov Shahboz Shahriddin o‘g‘li**

O‘zbek tili so‘z turkumlarini modellashtirish tamoyillari (Ot so‘z turkumi  
misolida).....3

**Zarmasov Shahboz Shahriddin o‘g‘li**

Principles of modeling Uzbek speech parts (on the example of the nouns).....27

**Зармасов Шаҳбоз Шаҳриддин ўғли**

Принципы моделирования частей речи узбекского языка (На примере имён  
существительных).....51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works

Список опубликованных работ.....57

**QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

**ZARMASOV SHAHBOZ SHAHRIDDIN O‘G‘LI**

**O‘ZBEK TILI SO‘Z TURKUMLARINI MODELLASHTIRISH TAMOYILLARI  
(Ot so‘z turkumi misolida)**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3703 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qdpi.uz) hamda “Ziyonet” axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sobirov Abdulhay Shukurovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Abdurahmonova Nilufar Zaynobiddin qizi**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Gaziyeva Maftuna Muhammadovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**


**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qo‘qon davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “03” 10 soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (99873) 542-38-38; faks: (99873) 542-11-43; e-mail: quqondpi@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Qo‘qon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (17 -raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150700, Qo‘qon shahri, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (99890) 508-64-42, e-mail: qdpi\_arm@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “19” sentabr kuni tarqatildi.

(2025-yil “03” oktabr dagi 28 -raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.X.Hakimov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**R.A.Jo‘rayeva**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.M.Jamoliddinova**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida olam uzvlarini modellashtirish, til hodisalarining strukturasi va grammatik kategoriyalarining milliy modellarini yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Til tadqiqiga zamonaviy yondashuvlar asosida sohaga oid yangi nazariyalar yuzaga keldi. Natijada XX asrning ikkinchi yarmida formallashtirish, XX asrning oxiri XXI asrning dastlabki yillaridan boshlab lingvistik modellashtirish tilshunoslikdagi sistem tadqiqotlar uchun metodologik asos bo'lib xizmat qila boshladi. Bu esa tilshunoslikning pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, nomshunoslik, kognitologiya va kompyuter lingvistikasi kabi sohalari rivojini ta'minlab, lingvistik modellashtirish nazariyasining sifat bosqichiga ko'tarilishida amaliy ahamiyat kasb etdi.

Dunyo tilshunosligida olamni ilmiy bilish, inson va mashina muloqotini optimallashtirish, dasturiy materiallar uchun lingvistik ta'minot yaratish asosiy masalaga aylandi. Bu esa til birliklari va ularni tahlil etishda tafakkur eksperimentidan foydalanish hamda modelni ideal obyekt sifatida talqin etish zaruratini belgiladi. Tilni modellashtirishda kompyuter lingvistikasi sohasida bir qator ilmiy va amaliy natijalar qo'lga kiritildi: milliy til korpuslari, matnlarning morfologik, sintaktik va semantik tahlilini ta'minlovchi dasturlar yaratildi, NLP (tabiiy tilni qayta ishlash) tizimi<sup>1</sup> ishlab chiqildi.

O'zbek tilshunosligida ham tilni zamonaviy kommunikatsion qurilmalar bilan integratsiyalashuvi muammolarini hal etishga yo'naltirilgan kompyuter dasturlari, matnni avtomatik tahlil qiluvchi morfoanalizatorlar yaratildi, tabiiy tilni qayta ishlash va uning lingvistik bazalarini yaratish borasida salmoqli ishlar qilindi. "Davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalaridagi o'rnini kuchaytirish, faol integratsiyalashuvini ta'minlash"<sup>2</sup> hamda til korpusining lingvistik ta'minotini yaratish, modellashtirishga oid umumiy tamoyillarni o'rganish va lingvistik modellar ishlab chiqish masalalariga e'tibor kuchaydi. Biroq modellashtirishning lingvistik asoslarini ishlab chiqish, o'zbek tilining milliy korpusi uchun milliy modellar asosida lingvistik ta'minot yaratish va o'zbek tilining so'z turkumlarini modellashtirish tamoyillarini belgilash bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

---

<sup>1</sup> Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition with Language Models, 3rd edition. Online manuscript released August 24, 2025. <https://web.stanford.edu/~jurafsky/slp3>.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 20 октябрдаги «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сон фармони, // <https://lex.uz/docs/5058351>.

to'g'risida", 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-sonli "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruv tizimini takomillashtirish to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-martdagi 139-sonli "O'zbek tili va adabiyoti bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Dunyo tilshunosligida lingvistik ta'minotning nazariy-metodologik muammolarini o'rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan bo'lib, shu davrda "mexanik" bosqichdan "mantiqiy-lingvistik" bosqichga o'tildi<sup>3</sup>. Morfologik tahlilning nazariy asoslari S.Toldova, T.Sadikov<sup>4</sup>, morfoanaliz xususiyatlari D.Rudolf<sup>5</sup>, morfoanalizning amaliy ahamiyati A.Ermakov<sup>6</sup>, matnga morfologik va sintaktik ishlov berish modeli I.Nojov<sup>7</sup> tomonidan o'rganilgan. Turkiy kompyuter lingvistikasida morfoanalizator tuzish masalalari G.Eryigit, E.Adali, A.Dibo, A.Sheymovich, J.Suleymanov, R.A.Gulmullin, R.R.Gataullin<sup>8</sup> kabi olimlarning ishida yoritildi.

Jahon tilshunosligida lingvistik modellashtirish sintaktik sathda maydonga keldi. XX asrda E.Sepir, L.Blumfeld, R.Yakobson, N.Xomskiy, A.Losev, Z.Xarris, Ch.Hokket, S.Markus<sup>9</sup> kabi olimlar tomonidan "lingvistik model" tushunchasi ilk

---

<sup>3</sup> Соколов А.В. Автоматизация библиографического поиска / А.В.Соколов. – М.: Книга, 1981. – 167 с.

<sup>4</sup> Толдова С.Ю., Бонч-Осмоловская А.А. Автоматический морфологический анализ // Фонд знаний «Ломоносов». – М., 2011. [www.lomonosov-fund.ru/enc/ru/encyclopedia:0127430](http://www.lomonosov-fund.ru/enc/ru/encyclopedia:0127430); Садыков Т., Кочконбаева Б. Об оптимизации алгоритма морфологического анализа // Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «Turklang-2018». (Труды конференции) – Ташкент, 2018. – 320 с.

<sup>5</sup> Rodolfe D. Computational Linguistic Text Processing: Lexicon, Grammar, Parsing and Anaphora Resolution. Nova Science Publishers, Inc. – New York, 2008. – P. 4–5.

<sup>6</sup> Ермаков А. Морфологический анализатор – основа поисковых систем // <https://www.kv.by/archive/index2004154301.htm>

<sup>7</sup> Ножов И.М. Морфологическая и синтаксическая обработка текста (модели и программы) сегментации русского предложения. – М.: АКД, 2003. – 152 с.

<sup>8</sup> Eryigit G., Adali E. An affix stripping morphological analyzer for Turkish // Proceedings of IASTED International Conference ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND APPLICATIONS. February 16–18, 2004, – Austria. – P. 299–304.; Дыбо А.В., Шеймович А.В. Автоматический морфологический анализ для корпусов хакасского и древнетюркского языков / Научное обозрение саяно-алтая рецензируемый научный журнал, – № 2(08), 2014 (Периодичность – 2 раза в год. серия: Филология. Выпуск 2). – С. 9–31.; Сулейманов Д.Ш., Гильмуллин Р.А., Гатауллин Р.Р. Морфологический анализатор татарского языка на основе двухуровневой модели морфологии // Пятая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2017». – Труды конференции. В 2-х. Т 2. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 2017. – 327 с.

<sup>9</sup> Sepir E. Language an introduction to the study of speech. – New York, 1921. – 246 p.; Blumfeld L. An introduction to the study of language. – Amsterdam, 1983. – 292 p.; Yakobson R. Fundamentals of Language. – Berlin, – 91 p.; Хомский Н. Синтаксические структуры // Новое в лингвистике. Вып. 2. – М., 1962. – С. 412–527.; Лосев

bor qoʻllanilgan. Keyinchalik K.B.Baratoyev, B.G.Glinskiy, A.I.Uyumov, I.B.Novik, V.A.Shtoff, Y.A.Jdanov, E.V.Busalova, F.N.Gurbanov, V.A.Vennikov, Y.F.Kirov, L.N.Murzin, I.I.Revzin<sup>10</sup> kabi olimlarning ilmiy ishlarida modellashtirish metodining umumiy mohiyati, modelning negizi, ilmiy bilishdagi funksiyalari va tasnifi masalalari tadqiq etilgan.

Oʻzbek tilshunosligida sintaktik sathni modellashtirishga doir tadqiqotlar XX asrning 70–80-yillarida A.Nurmonovning monografik ishi bilan boshlanadi<sup>11</sup>. Chunonchi, minimal sodda gap qoliplarini ishlab chiqish<sup>12</sup>, qoʻshma gaplarning sistemaviy-struktur tadqiqi<sup>13</sup>, gapda yoʻqlik-mavjudlik belgilarining struktur qolipi<sup>14</sup>, til sathlarida umumiylik-xususiylilik dialektikasining namoyon boʻlishi<sup>15</sup>, soʻz birikmasining shakliy, joylashuv va maʼnoviy qoliplari<sup>16</sup>, bundan tashqari, morfemik sath birliklari<sup>17</sup> va soʻz yasalishini modellashtirish muammolari ham monografik planda oʻrganilgan. Biroq morfologik birliklarni modellashtirish maxsus tadqiqotlar predmeti boʻlmagan, u oʻz yechimini kutayotgan murakkab va muammoli masalalardan biri sanaladi.

Oʻzbek kompyuter lingvistikasida matnning leksikografik ishlovi va lingvostatistik tahlili borasida A.Poʻlatov, M.Mahmudov, M.Ayimbetov, S.Karimov, S.Rizayev, S.Muhamedov, G.Jumanazarova, A.Babanarov, D.Oʻrinboyeva, A.Norov, I.Qosimova<sup>18</sup> larning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor.

---

A.Ф. Введение в общую теорию языковых-моделей. – М., 1968. – С. 13–20.; Harris Z. Structural Linguistics. – Chicago, 1960, – 408 p. Hokket Ch. A course in modern linguistics. – New York, 1958. – 648 p.

<sup>10</sup> Венников В.А. Теория подобия и моделирования. – М., 1986. – 489 с.; Киров Е.Ф. Теоретические проблемы моделирования языка. – Казань, 1989. – 265 с.; Мурзин Л.Н. Лингвистическое моделирование и деривация речевой деятельности // Деривация в речевой деятельности. – Пермь, 1988. – С. 52–62.; Ревзин И.И. Модели языка. – М.: Академии наук, 1962. – 194 с.

<sup>11</sup> Нурмонов А.Н. Проблемы системноисследования синтаксиса узбекского языка. – Ташкент, 1982. – 152 б.

<sup>12</sup> Курбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап курилишининг талқини: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 51 б.; Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик курилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 19 б.

<sup>13</sup> Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек тилида кўшма гапларнинг формал-функционал талқини. – Тошкент: Фан, 1994. – 257 б.

<sup>14</sup> Лутфуллаева Д.Э. Гапнинг семантик-синтактик курилиш қолипи ва пропозитив структураси ўртасидаги муносабат (ўзбек тилидаги йўқлик-мавжудлик белгилари асосида зидланувчи гаплар мисолида): Филол. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2006. – 235 б.

<sup>15</sup> Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик ва хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 166 б.

<sup>16</sup> Назарова С. Бирикмаларда сўзнинг эркин боҳланиш омиллари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 21 б.

<sup>17</sup> Мирзакулов Т. Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабатлари. – Хўжанд, 1992. – 50 б.

<sup>18</sup> Пўлатов А.К., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент, 2007. – 117 б.; Махмудов М.А., Пиотровская А.А., Садыков Т. Система машинного анализа и синтеза тюркской словоформы // Переработка текста методами инженерной лингвистики. – Минск, 1982.; Айымбетов М.К. Опыт лингвостатистического анализа лексики и морфологии каракалпакского публицистического текста: Автореф. дисс... канд. фил. наук. – Ташкент, 1987.; Каримов С., Қаршиев А., Исроилова Г. Абдулла Қаҳҳор асарлари тилининг луғати. Алфавитли луғат. Частотали луғат. Терс луғат. – Тошкент, 2007. – 434 б.; Ризаев С. Ўзбек тилининг лингвостатистик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2008.; Мухаммедов С.А. Статистический анализ лексико-морфологической структуры узбекских газетных текстов: Автореф. дисс... канд. фил. наук. – Ташкент, 1980. – 88 б.; Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 50.; Бабанаров А. Разработка принципов построения словарного обеспечения турецко-русского машинного перевода: Автореф. дисс... канд. фил. наук. – Л., 1981. – 17 с.; Ўринбоева Д.Б. Ўзбек фольклори матнларининг лингвостатистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2010. – 121 б.; Норов А. Компьютер лингвистикаси асослари. – Қарши,

Keyinchalik o‘zbek-ingliz tili mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti<sup>19</sup>, o‘zbek tili mualliflik korpusi<sup>20</sup> hamda til korpusi lingvistik bazasini tuzish tamoyillari<sup>21</sup>, milliy til morfologik analizatorini yaratish masalalari<sup>22</sup>, o‘zbek tili birliklarini grafematik tahlil qilish<sup>23</sup> va sintaktik qoliplashtirish muammolari<sup>24</sup> monografik planda tadqiq etildi. Otlarni avtomatik tahlil qilish<sup>25</sup> hamda ot va sifat so‘z turkumlari morfologik analizini avtomatlashtirishning dasturiy jihatlari yoritildi<sup>26</sup>.

Hozirda morfologik tahlilning nazariy asoslari, umumiy tavsifi, ishlash tamoyillari, grammatik kategoriyalar va lingvistik modellar tavsifi Kioto university (Yaponiya), Australian National University (Avstraliya), Istanbul texnika universiteti (Turkiya), Moskva davlat universiteti va Moskva davlat lingvistika universiteti (Rossiya)da; matnga morfologik va sintaktik ishlov berish modellari hamda morfologik analizator tuzish masalalari esa Xarkov davlat pedagogika universiteti (Ukraina) va Baki Dövlət universiteti (Ozarbayjon)da tadqiq etilgan<sup>27</sup>. O‘zbek tili mualliflik korpusi va uning lingvistik ta’minoti O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti va Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (O‘zbekiston)da tadqiq etilmoqda. Shu bilan birga, Buxoro davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti va Termiz davlat universitetida ayrim ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Andijon davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari: muammo va vazifalar” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** borliq elementlari o‘rtasidagi dialektik munosabat hamda o‘zbek tili so‘z turkumlarini milliy modellashtirish tamoyillarini ot so‘z turkumining milliy modellari asosida aniqlashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifasi:**

borliq elementlari o‘rtasidagi dialektik munosabat hamda lingvistik modellarning nazariy asoslarini tadqiq etish orqali modellashtirish metodining tilshunoslik va kompyuter lingvistikasi sohasidagi ahamiyatini chuqurroq yoritish;

---

2017. – 136 б.; Қосимова И.А. Ўзбек, рус ва инглиз тилларидаги феъл шакллари синтез ва анализ қилишнинг компьютер дастури. – Тошкент, 2005. – 126 б.

<sup>19</sup> Abdurahmonova N. Mashina tarjimasining lingvistik ta’minoti. Monografiya, – Toshkent, 2018. – 175 b.

<sup>20</sup> Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. – Қарши, 2018. – 250 б.

<sup>21</sup> Эшмўминов А.А. Ўзбек тили миллий корпусининг синоним сўзлар базаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дисс. – Қарши, 2019. – 140 б.

<sup>22</sup> Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фан. д-ри ...дисс. – Тошкент, 2021. – 268 б.

<sup>23</sup> Абжалова М.А. Ўзбек тилидаги матнларни тахрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. – Фарғона, 2019. – 164 б.

<sup>24</sup> Qurbonova M., Rahmatilloeva M. O‘zbek tilida sintaktik qoliplar va matnning avtomatik tarjimasini. Monografiya. – Toshkent: Ma’rifat, 2023. – 176 b.

<sup>25</sup> Орхун М. Computational analysis of uzbek nouns / Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang-2018». (Труды конференции) – Ташкент, 2018. – 320 с.

<sup>26</sup> Болтаев Т.Б., Ибрагимов С.И. О проекте программной системы морфологического анализа узбекского языка // <http://buxdu.uz/index.php/uz/>; Болтаев Т.Б., Кузьминов Т.В., Поттосин И.В. О структурном конструировании программ и инструментах его поддержки // Среда программирования: методы и инструменты. – Новосибирск, 1992, – С. 22–37.

<sup>27</sup> Хамроева Ш. Ўзбек тили муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. – Қарши, 2018. – Б. 8.

har bir tilda o'ziga xos milliy modellarning mavjudligini otning leksik-semantik, morfologik va sintaktik milliy modellarini ishlab chiqish orqali ko'rsatish; o'zbek tili morfologik sath birliklari, xususan, so'z turkumlarini milliy modellashtirishning asosiy tamoyillariga doir tavsiyalarni ishlab chiqish;

ot so'z turkumining leksik-semantik, morfologik va sintaktik sathdagi funksiyalarini milliy modellar orqali kengroq ochib berish;

o'zbek tili milliy korpusi uchun ot so'z turkumining milliy lingvistik modellarini yaratish;

ot so'z turkumiga mansub birliklarning so'z birikmasi tarkibidagi pozitsiyasini tahlil qilish orqali ularning kompozitsion milliy modellarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyektini** o'zbek tilining ot so'z turkumi tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti sifatida** ot so'z turkumining leksik-semantik va grammatik paradigmalarning milliy lingvistik modellari belgilangan.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyani tayyorlashda induktiv va deduktiv metodlar, shuningdek, sistem tahlil, funksional tahlil, lingvostatistik tahlil, o'zaro taqqoslash hamda sintez va analiz usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

borliq elementlarining dialektik munosabati masalalari, turli tizimli tillarda milliy modellar mavjudligi va ularning ifoda imkoniyatlari, o'zbek tili milliy korpusi uchun milliy shakllarni saqlagan lingvistik modellar tamoyillari, xususan, ot so'z turkumiga mansub leksik birliklarning lingvistik-semantik, morfologik va sintaktik paradigmalari milliy modellashtirish asosida aniqlangan;

otning ma'no guruhlarini keng ko'lamli milliy modellashtirish va lingvostatistik tahlil asosida 37 ta, shu jumladan, sanalish-sanalmaslik xususiyatiga ko'ra 8 turdagi struktur milliy modellar ishlab chiqilgan. Ot so'z turkumiga mansub birliklar o'rtasidagi dialektik munosabatlar makrosistem, mikrosistem, yadro, transpozitsion va struktur modellar orqali asoslangan;

otning semantik maydonidagi paradigmalarning yosh, jins va tur xususiyatlari, ekstensional-intensionallik, butun-qism, vazifadoshlik, sinonimiya va darajalanish munosabatlari lingvistik ta'minot sifatida milliy modellashtirilgan, atoqli otlar alohida tizim sifatida lingvomadaniy tamoyil asosida o'zbek tilining milliy korpusi uchun lingvistik jihatdan modellashtirilgan. Atoqli otlarning etnografik va milliy-madaniy xususiyatlari [  $Ot_{Muhammad+}^{A-antro}$  ], [  $Ot_{istak}^{A-antro}$  ], [  $Ot_{niyat}^{A-antro}$  ], [  $Ot_{Abdu+}^{A-antro}$  ], [  $Ot_{+bek}^{A-antro}$  ], [  $Ot_{gul+}^{A-antro}$  ], [  $Ot_{+niso}^{A-antro}$  ]; olamning lisoniy manzarasida atoqli otlar munosabati [  $Ot_{topo}^{A-nekro}$  ], [  $Ot_{antro}^{A-nekro}$  ], [  $Ot_{kosmo}^{A-fito}$  ], [  $Ot_{zoo}^{A-kosmo}$  ], [  $Ot_{antro}^{A-kosmo}$  ], [  $Ot_{mifo}^{A-ergo}$  ] kabi transnimizatsion modellar orqali dalillangan;

ot so'z turkumiga oid birliklarning gap va so'z birikmasidagi pozitsiyasi tahlil qilinib, so'z birikmasi turlari, izohlovchi-izohlanmish munosabati hamda tur-jins tuzilmasidagi birikmalarning milliy modellari yaratilgan, otning gapdagi vazifasini ko'rsatuvchi kompozitsion tuzilishi egalik, kelishik va son kategoriyalarining o'zaro moslashuvi asosida yuzaga chiqishi hamda otning leksik-semantik, morfologik va sintaktik sathdagi funksional xususiyatlari milliy modellar asosida isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tadqiqotdan tilshunoslikning pragmalingvistika, sotsiolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik, nomshunoslik, kognitologiya va kompyuter lingvistikasi kabi yo‘nalishlarida, xususan, leksik-semantik va grammatik tizimlarni chuqurroq tadqiq etish hamda lingvistik modellashtirish nazariyasini rivojlantirishda foydalanish mumkinligi asoslangan.

dissertatsiya doirasida yaratilgan milliy modellar raqamli texnologik tizimlarning lingvistik ta‘minoti, xususan, o‘zbek tilining elektron morfologik lug‘atini yaratish hamda o‘zbek tilshunosligini sistemaviy-struktur jihatdan tadqiq etishda muhim manba sifatida xizmat qilishi belgilangan.

ilmiy izlanishlar natijasida ot so‘z turkumi ma‘no guruhlarida oid 37 xil milliy modellar ishlab chiqilgan, shuningdek, semantik maydon va olamning lisoniy manzarasidagi paradigmalarni milliy modellashtirishda lingvomadaniy tamoyillarning ahamiyati yuzasidan mulohazalar ilgari surilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilgani, izlanish yuzasidan chiqarilgan xulosalarning metodologiyaga mosligi, soha uchun dolzarb masalalarning hal etilishi, lisoniy dalillarning nazariy asoslanganligi, tadqiqot himoyaga chiqarilgan holatlarining qiyosiy-nazariy usullar yordamida yechilishi, shuningdek, tadqiqot ishlarining chop etilishi tavsiya qilingan mamlakat va chet el ilmiy jurnallarida, respublika va xalqaro ilmiy anjumanlarda natijalarning e‘lon qilinishi hamda xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvistik modellashtirishda ilgari mavjud bo‘lmagan milliy yondashuvni shakllantirish, borliq elementlari o‘rtasidagi dialektik munosabatlarni lingvomadaniy jihatdan chuqurroq o‘rganish hamda o‘zbek kompyuter lingvistikasini nazariy jihatdan boyitishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lingvistik ta‘minot sifatida o‘zbek tilining milliy korpusi rivojiga xizmat qilishi, tilni lingvostatistik tavsiflash, shuningdek, sun‘iy intellekt tizimlari, morfoanalizatorlar va avtomatik tarjima dasturlariga integratsiya qilish uchun poydevor yaratishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tadqiqotda ilgari surilgan nazariy takliflar, amaliy tavsiyalar va xulosalar quyidagilarga tatbiq etilgan:

turli tizimli tillarda milliy modellarning mavjudligi va ularning ifoda imkoniyatlari, o‘zbek tilining milliy korpusi uchun milliy shakllarni saqlagan lingvistik modellar tamoyillari, xususan, otga xos leksik birliklarning lingvistik-semantik, morfologik va sintaktik paradigmalarini milliy modellashtirishga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida 2022–2023-yillarda bajarilgan “Xizmat ko‘rsatish obyektlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi II-4721101717-raqamli amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (2024-yil 8-oktabrdagi 1475-sonli ma‘lumotnoma). Natijada savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektlarini milliy-madaniy va etimologik xususiyatlari hamda geografik joylashuviga ko‘ra nomlash tamoyillari ishlab chiqilgan;

ot so‘z turkumiga oid birliklarning gap va so‘z birikmasidagi pozitsiyasi, so‘z birikmasi turlari, izohlovchi-izohlanmish munosabati hamda tur-jins tuzilmasidagi birikmalarning milliy modellarini yaratish, o‘tning gapdagi vazifasini ko‘rsatuvchi kompozitsion tuzilishi egalik, kelishik va son kategoriyalarining o‘zaro moslashuvi asosida shakllanishi, shuningdek, o‘tning leksik-semantik, morfologik va sintaktik sathdagi funksional xususiyatlariga doir xulosalardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida 2021–2023-yillarda “O‘zbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (2024-yil 8-noyabrdagi 723/01-01-sonli ma‘lumotnoma). Natijada o‘zbek tilining milliy korpusini loyihalash, lingvistik ta‘minot yaratish hamda lingvistik modellarni ishlab chiqish tamoyillari aniqlangan;

semantik maydon va olamning lisoniy manzarasida tranonimizatsion modellarning ahamiyati, turli so‘z turkumlari, xususan, ot so‘z turkumiga oid birliklarning tranonimizatsiyasi inson va olam o‘rtasidagi emotsional jarayonlar hamda ruhiy va milliy-madaniy munosabatlarni yuzaga keltiruvchi hodisa sifatida ko‘rilishi haqidagi xulosalardan “Toshkent” telekanalida “Siz nima deysiz?” ijtimoiy ko‘rsatuvining 2024-yil 17-yanvar kuni soat 18:00 da namoyish etilgan “*To‘g‘ri so‘zlashni o‘rganaylik*” mavzusidagi sonini tayyorlashda foydalanilgan (2024-yil 4-noyabrdagi 01-15-114-sonli ma‘lumotnoma). Natijada ko‘rsatuv lisoniy manzarani tashkil etuvchi milliy nomlarni yaratishda inson va olam o‘rtasidagi emotsional jarayonlarga tayanilishi xususidagi ilmiy dalillar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika anjumanida ma‘ruza shaklida taqdim etilib, jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 13 ta ilmiy ish nashr ettirilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi oydinlashtirilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, ishning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Dunyo tilshunosligida modellashtirishga doir tadqiqotlar tavsifi**” deb nomlangan bo‘lib, unda lingvistik modellashtirish metodining shakllanishi va taraqqiyoti, ro‘y bergan o‘zgarishlar, ayniqsa, model hissiy va ilmiy bilish kesishmasining mahsuli sifatida o‘rganilgan.

Bobning “**Dunyo tilshunosligiga modellashtirish metodining kirib kelishi va o‘rganilishi**” nomli birinchi faslida modellashtirish metodining ilk nazariy-metodologik asoslari, tilshunoslikka kirib kelishi va mazmun-mohiyati haqida fikr yuritiladi, shuningdek, bu boradagi ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar tahlilga tortiladi.

Olamni ilmiy bilish va olam uzvlarini modellashtirish Karl Popperning uch olam haqidagi nazariyasidan boshlangan. Bu nazariyaga ko‘ra, fizik olam, fikriy olam va g‘oyalar olami mavjud bo‘lib, fizik olamdan g‘oyaviy olamga tomon boriladi: sezgi a‘zolarimizga fizik olam taqdim etiladi va u ongimizda fikriy olam sifatida aks etadi. Fikriy olamdagi muhim belgilarni umumlashtirish orqali konstruktiv – g‘oyaviy olam shakllanadi. Konstruktiv olam obyektning model, sxema, chizma, konstrukt hamda A.F.Losev tomonidan substrat<sup>28</sup> deb atalgan shaklida namoyon bo‘lishidir.

Amerikalik olim K.Shennon tashqi olam haqidagi ma‘lumotlarning insonga uzatilishini *manba* → *uzatuvchi* → *kanal* → *priyomnik* (*qabul vositasi – Sh.Z. ta’kid bizniki*) → *axborotni oluvchi* sxemasida bayon qiladi<sup>29</sup>. A.Rahimov esa uni kommunikatsiya jarayonining modeli sifatida izohlaydi<sup>30</sup>. Bizningcha, kommunikatsiya jarayoni “*manba* → *kanal* → *kommunikator* → *kanal* → *nutqiy vaziyat* + *nutqiy xabar* + *nutqiy maqsad* + *nutqiy ta’sir* ← *adresat*” sxemasiga ega.

Til birliklarining nutqda reallashuvida muayyan mantiqiy qonuniyatlar mavjud. Jumladan, Aristotel ta’limoti natijasida formal mantiq yuzaga keldi. Nemis faylasufi Gegel tomonidan dialektik mantiqqa asos solindi. Keyinroq Leybnis va Gilbertlar mantiq faniga matematik simvollarni tatbiq etdi. XIX asrga kelib nemis olimi G.Frege, ingliz olimi J.Bul, rus olimi V.Poretskiy ishlarida simvolik mantiq asoslari yaratildi<sup>31</sup>. Shu tariqa mantiq, grammatika, semiotika va algoritm modellashtirish metodining tilshunoslikka tatbiqida poydevor bo‘lib xizmat qila boshladi.

Fanda modellashtirish metodi asosida bashorat qilish, model nazariy asosga ega degan fikrga tayanadi. Model (*fr.modele* < *lot.modulus* – o‘lchov, me‘yor, nusxa, andoza) biror narsaning xuddi o‘zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan nusxasi<sup>32</sup> bo‘lib, u o‘rganilayotgan obyekt haqidagi nazariy bilimlarni o‘zida jamlagan holda, bu bilimlar asosida hosila obyektning yaratilishini ta’minlaydi.

Modellar dastlab amaliy sohalarda qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik ilm-fanning ijtimoiy sohasiga ham kirib keldi. XX asrning 50-yillaridan tilshunoslikda “*mashina tarjimai*”, “*mashina tilshunosligi*” atamaları qo‘llana boshlandi<sup>33</sup>. Amerikalik olim N.Xomskiyning formal grammatika haqidagi qarashlari (formal grammatik nazariyasi) asosida kompyuter lingvistikasi shakllandi<sup>34</sup>. Shu tariqa lingvistik model tushunchasi XX asrda E.Sepir, L.Blumfeld, R.Yakobson, Z.Xarris, Ch.Hokket, S.Markus, A.F.Losev, N.Xomskiy<sup>35</sup> kabi olimlar tomonidan ilk bor qo‘llanildi.

<sup>28</sup> Лосев А.Ф. Введение в общую теорию языковых моделей. – М.: Наука, 1968. – С. 16.

<sup>29</sup> Эко У. Отсутствующая структура. Введение в семиологию. – М.: Петрополис, 1998. – С. 45.

<sup>30</sup> Rahimov A. Компьютер лингвистики asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – В. 18.

<sup>31</sup> Пулатов А.К., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент, 2007. – Б. 10.

<sup>32</sup> Философский словарь. – М.: Изд-во полит. Лит-ры, 1991. – С. 267.

<sup>33</sup> Grishman R. Computational linguistics. Cambridge University Press, 1994. – P. 4.

<sup>34</sup> Гладкий А.В., Мельчук И.А. Элементы математической лингвистики. – М.: Наука, 1969. – С.7.

<sup>35</sup> Sepir E. Language an introduction to the study of speech. – New York, 1921. – 246 p.; Blumfeld L. An introduction to the study of language. – Amsterdam, 1983. – 292 p.; Yakobson R. Fundamentals of Language. – Berlin, – 91 p.;

Jahon tilshunosligida lingvistik tushunchalarni modellashtirish masalasi sintaktik sathda maydonga keldi. Jumladan, Sepirning simbolizatsiyaga oid farazlari<sup>36</sup>ga tayangan formal tillar grammatik nazariyasining soʻz turkumlari, gap boʻlamlari va gap konstruksiyalari asosida ish koʻrishi<sup>37</sup>, XX asrning 50-yillarida amerikalik olim Charlz Friz tomonidan ilgari surilgan gap strukturasi modellashtirish gʻoyasida gap muayyan soʻz turkumlariga oid boʻlgan soʻzlar zanjiridan iboratligi va tahlilda morfologiya bazasiga tayanilishi taʼkidlanadi<sup>38</sup>. Fransuz tilshunosi Lyusyey Tenyer tomonidan ilgari surilgan verbosentrizm konsepsiyasida esa gap konstruksiyalarining eng sodda (primitiv) modeli – maʼlum soʻz turkumiga mansub gap boʻlamlari modeli ekanligi bayon qilinadi. E.I.Shutova sintaktik modelning turli xil real koʻrinishlari uchun umumiy boʻlgan namunaviy maʼnoni sintaktik invariant deb, bu invariant *leksik-semantik*, *leksik-morfologik*, *morfologik* va *kompozitsion variantlar* asosida namoyon boʻlishini taʼkidlaydi<sup>39</sup>.

Model – til birligi, uning nutqda voqelanishi esa nutq birligi sifatida namoyon boʻladi. Nutqiy hodisalarni eng muhim va oʻxshash belgilari asosida umumlashtirish natijasida tilshunoslikda invariant, substansiya, javhar, qolip, chizma, sxema, konstrukt, qurilma, formula kabi atamalar bilan ifodalanadigan model shakllanadi. Ushbu faslda modellashtirish metodining nazariy jihatlari bilan bir qatorda, uning amaliy jarayonga tatbiqi ham yoritilgan.

Bobning ikkinchi fasli “**Modellashtirish metodining oʻzbek tilshunosligiga tatbiq etilishi**” deb nomlanadi. Ushbu faslda oʻzbek tilshunosligida modellashtirish metodiga bagʻishlangan ilk tadqiqotlarda, asosan, tilning sintaktik sathini modellashtirish masalasiga alohida eʼtibor qaratilgani taʼkidlanadi. Shu asosda fonologik, morfemik, leksik va morfologik birliklarni modellashtirishga olib keluvchi dialektik munosabatlarning sintaktik sath bilan uzviy bogʻliqligi, shuningdek, sintaktik sathga olib boruvchi yoʻlning morfologik birliklarni modellashtirish orqali ochilishi haqida ilmiy mulohazalar yuritiladi.

Oʻzbek tilshunosligida morfemik sath birliklarini modellashtirish muammosi ilk bor T.Mirzaqulov tadqiqotlarida ilgari surilgan. Sh.Mirzaqulov tadqiqotida esa soʻz yasalihi paradigmasini modellashtirishga doir harakatlar seziladi<sup>40</sup>. A.Nurmonov soʻz shaklining qurilish materiali morfema ekanligini asoslab, morfemalar munosabatidan tashkil topgan yasama soʻz modelini *leksik morfema + yordamchi morfema* sxemasida, yaʼni [M<sub>1</sub> + M<sub>yord</sub>] shaklida keltiradi va uni invariant sifatida eʼtirof etadi<sup>41</sup>. D.Nabiyeva *leksik morfema + grammatik*

---

Хомский Н. Синтаксические структуры // Новое в лингвистике. Вып. 2. – М., 1962. – С. 412–527.; Лосев А.Ф. Введение в общую теорию языковых-моделей. – М., 1968. – С. 13–20.; Harris Z. Structural Linguistics. – Chicago, 1960, – 408 p.; Hokket Ch. A course in modern linguistics. – New York, 1958. – 648 p.

<sup>36</sup> [https://studopedia.ru/6\\_11435\\_ponyatie-i-sostav-lingvisticheskogo-obespecheniya.html](https://studopedia.ru/6_11435_ponyatie-i-sostav-lingvisticheskogo-obespecheniya.html)

<sup>37</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademyashr, 2011. – B. 45.

<sup>38</sup> Пулатов А.К., Мухамедова С. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент, 2007. – Б. 32.

<sup>39</sup> Шутова Е.И. Вопросы теории синтаксиса. – М.: Наука, 1984. – С. 107.

<sup>40</sup> Мирзакулов Т. Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспектлари ва уларнинг муносабатлари. – Хўжанд, 1992. – 50; Мирзакулов Т. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари: Филол. фан. д-ри. дисс.... автореф. – Тошкент, 1994. – 82 б.; Мирзакулов Ш. Ўзбек тилида сўз ясаиш маъноси ва парадигмаси: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1995. – 22 б.

<sup>41</sup> Нурмонов А. Туркий тилларда сўз ва уларни туркумларга ажратиш муаммолари // Танланган асарлар. 3 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – Б. 186.

*morfemaning* (**MI** + **Mg**) modelini invariant deb, bu modelning allomorflar bilan to'ldirilgan shaklini variant sifatida izohlaydi<sup>42</sup>. Mazkur ishda *leksik morfema* + *grammatik morfema* sxemasi asosida [**M<sub>1</sub>** + **M<sub>g</sub>**] milliy modeli ishlab chiqilgan.

Ba'zi adabiyotlarda til sathlaridagi umumiylikni belgilashda leksemaga tayanuvchi yondashuvlar ilgari suriladi. Jumladan, L.Blumfild so'z (leksema)ning konstruksiya ekanligini ta'kidlaydi<sup>43</sup>. Leksema modellashtirish jarayonida tayanch nuqta – yadro model sifatida qaraladi. Shu asosda til birliklarining eng yuqori umumlashmasi bo'lgan sintaktik birliklarni modellashtirish masalasi R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, D.Lutfullayeva, D.Nabiyeva, M.Abuzalova, S.Nazarova<sup>44</sup> kabi tilshunos olimlarning monografik tadqiqotlarida yoritilgan. Mazkur ishlarda gapning qurilish qoliplariga nisbatan *struktur model*, *struktur sxema*, *gap qolipi*, *gap modeli* kabi terminlar qo'llanadi. Bunday struktur sxemalar o'zbek tilshunosligida *sintaksema*, *kognitema*, *konstrukt*, *model*, *qolip* atamaları orqali ham ifodalanadi. Jumladan, G.Toirova<sup>45</sup> tadqiqotida modul termini qo'llanadi, biroq bu tushuncha modelning mazmunini to'liq ifodalay olmaydi<sup>46</sup>.

Dissertatsiyada eng kichik gaplarning shakl va mazmun munosabatidagi umumlashma milliy modeli [**P<sup>3</sup>**] ko'rinishida taqdim etildi. Bu model *propozitsiya* + *predikat* + *predikativlik* uchligini o'z ichiga oladi. Mazkur model asosida ot predikat uchun [**P<sub>ot</sub><sup>3</sup>**], fe'l predikat uchun [**P<sub>f</sub><sup>3</sup>**] milliy modelini ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, so'z-gaplar *propozitsiya* + *predikativlik* sxemasiga asoslangan [**P<sup>2</sup>**] modeli hamda minimal gaplar uchun [**Kk<sub>hukm</sub>**] modeli tavsiya etildi. Bu yerda, [**Kk**] – kesim va kesimlik kategoriyasini anglatadi.

Ushbu faslda Sh.Rahmatullayev tomonidan ilgari surilgan frazeologizmlarni modellashtirish masalalari ham ko'rib chiqilgan. O'zbek kompyuter lingvistikasi doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Jumladan, N.Abdurahmonova<sup>47</sup>, Sh.Hamroyeva<sup>48</sup>, M.Abjalova<sup>49</sup> kabi olimlarning ishlariga munosabat bildirilgan.

<sup>42</sup> Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик ва хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 166 бет. – Б. 18.

<sup>43</sup> Блумфилд Л. Язык. – Москва, 1968. – С. 225.

<sup>44</sup> Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек тилида қўшма гапларнинг формал-функционал талқини. – Тошкент: Фан, 1994. – 356 б.; Қурбонова М. Ўзбек тилида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини. Филол. фан д-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 2001. – 51 б.; Лутфуллаева Д.Э. Гапни семантик-синтактик қурилиш қолипи ва пропозитив структураси ўртасидаги муносабат (ўзбек тилидаги йўқлик-мавжудлик белгилари асосида зидланувчи гаплар мисолида). Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2006.; Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик ва хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент: Шарқ, 2005. – 166 б.; Abuzalova M. O'zbek tilida sodda gaplarning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi. Filol. fan. nomz... diss. – Toshkent, 1994. – 134 б.; Nazarova S.A. Birikmalarda so'zning erkin bog'lanish omillari. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1997. – 26 б.

<sup>45</sup> Тоирова Г. Лингвистик базани тузишда модуллаштиришнинг аҳамияти. // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. – Наманган, 2021 йил 3-сон, – Б. 377–385.

<sup>46</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: G'afur G'ulom, 2023. – B. 215–216.

<sup>47</sup> Abdurahmonova N. O'zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. Filol. fan. d-ri. ...diss. Avtoref. – Toshkent, 2021. – 30 б.

<sup>48</sup> Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: Филол. фан. д-ри. ...дисс. – Тошкент, 2021. – 268 б.

<sup>49</sup> Абжалова М.А. Ўзбек тилидаги матнларни таҳрир ва таҳлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. – Фарғона, 2019. – 164 б.

Mazkur tadqiqotda xalqaro modellashtirish andozalari inkor etilmaydi, har bir tilning ichki tuzilishi, til egalarining milliy-madaniy xususiyatlari hisobga olingan holda, milliy modellashtirish tamoyillarini aniqlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, ot so'z turkumi misolida o'zbek tili so'z turkumlarini sintez va analiz usullari asosida milliy modellashtirish muammolari yoritiladi. Izlanishlar natijasida o'zbek tili so'z turkumlarini milliy modellashtirishda *deduktiv, induktiv, tushuntirish, mantiqiy bilish, nazariy bilish, mavhumlashtirish, ideallashtirish, soddalashtirish, distributiv, lingvomadaniy, tejamkorlik, empirik, kategorial va sintaktik-semantik tamoyillar* ilgari surilgan.

Ikkinchi bob "**Otning leksik-semantik paradigmalari modellashtirish tamoyillari**" deb nomlanib, unda ot turkumiga mansub so'zlarning leksik-semantik paradigmalari milliy modellashtirish, otning semantik maydoni hamda olamning lisoniy manzarasida atoqli otlar tizimining milliy modellari yoritilgan. Leksik birliklarning paradigmatic munosabati ot so'z turkumi doirasida tadqiq etilgan.

Mazkur bobning "**Struktur talqinda otning ma'no guruhlari modeli**" deb nomlangan birinchi faslda tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlarini o'rganish, birlamchi belgilarni ajratib olish, qo'shimcha belgilardan soqit qilish, o'zaro solishtirish, qiyoslash va umumlashtirish asosida **milliy modellashtirish amalga oshirilgan** hamda **lingvostatistik tahlil qilingan**.

Ma'lumki, model obyektlarni ma'lum guruhlariga taqsimlab, ularni tartibga soladi. Shu nuqtayi nazardan, leksemalarni ma'lum sinflarga birlashtirish ham modellashtirish hisoblanadi. Masalan, sezgi a'zolarimizga berilgan mavhum tushunchalar, narsa-hodisalar – *mashinalar, daraxtlar, uylar, kiyimlar, daryolar* – barchasi modellardir. Demak, insonni qurshab turgan borliq modellashtirish ko'rinishga ega bo'lib, so'z turkumlari sistemalashgan birliklar sifatida olam dialektikasining eng yirik modeli sanaladi.

O'zbek kompyuter lingvistikasida predmetni ifodalovchi otning milliy modeli [ **Ot** ] shaklida belgilanadi. Dissertatsiyada yirik paradigma – ot turkumi tarkibida aniq bir shaxs va narsaning nomini ifodalovchi atoqli otlar: *Samarqand, Uchtepa, Munojot, Shahboz* kabilar uchun [ **Ot<sup>A</sup>** ]; predmetning umumiy nomini ifodalovchi *kitob, maktab, ko'cha, uzum, hayvon* kabi turdosh otlar uchun [ **Ot<sup>t</sup>** ]; birlik va ko'plik shakllarida qo'llanuvchi *kitob, olma, uzum, daftar, kompyuter* kabi aniq otlar uchun [ **Ot<sup>a</sup>** ]; ko'plik qo'shimchalarini qabul qilganda miqdor ma'nosini emas, balki kuchaytirish ma'nosini ifodalovchi *ozodlik, sevgi, muhabbat, mehr* kabi mavhum otlar uchun [ **Ot<sup>m</sup>** ]; birlik shaklda bir xil narsalarning bittasini ifodalovchi *uy, xona, kitob, daftar* kabi yakka otlar uchun [ **Ot<sup>y</sup>** ], shuningdek, birlik shaklda ham bir xil narsalarning jamini ifodalovchi *armiya, xalq, o'rmon, olomon, el* kabi jamlovchi otlar uchun [ **Ot<sup>j</sup>** ] modeli taqdim etilgan. Ot so'z turkumining ma'no guruhlari doirasidagi barcha modellar otning milliy modeli asosida shakllantiriladi. Bu esa otning modelini kichik qurilmalarning asosi sifatida **yadro model** deb e'tirof etishga olib keladi.

Dissertatsiyada bevosita kuzatish asosida sezgi a'zolarimizga ta'sir etuvchi *havo, bulut, suv* kabi sanalmaydigan aniq otlar [ **Ot<sup>a1</sup>** ]; *qush, uy, gilam* kabi sanaladigan aniq otlar [ **Ot<sup>a-sk</sup>** ]; *Samarqand, Shahboz, Munojot* kabi

sanalmaydigan atoqli otlar [  $Ot^{A1}$  ]; *muhabbat, sog'inch, qayg'u* kabi sanalmaydigan mavhum otlar [  $Ot^{m1}$  ]; *uy, kalit, ko'zoynak* kabi sanaladigan yakka otlar [  $Ot^{y-sk}$  ]; *xalq, lashkar* kabi sanaladigan jamlovchi otlar [  $Ot^{j-sk}$  ] shaklida modellashtirildi. Shuningdek, mavhum otlar tarkibidagi sanalish xususiyatiga ega bo'lgan otlar (*jin, pari, dev, ajina*) uchun [  $Ot^{m-sk}$  ] milliy modeli yaratildi, sanalmaydigan jamlovchi otlar esa [  $Ot^{j1}$  ] modeliga umumlashtirildi. Masalan: *omma, bashar, xaloyiq* so'zlarida umumlashtirish ma'nosi yuzaga chiqadi. Shu tariqa ot so'z turkumi doirasida sanalish-sanalmaslik mezoni asosida shakllantirilgan milliy struktur modellarning umumiy soni 8 tani tashkil etdi. Bu modellar otning semantik guruhleri o'rtasidagi sistemaviy-paradigmatik munosabatlarni aks ettiruvchi eng kichik semantik-struktur birliklar sifatida tavsiflandi va struktur modellar maqomida baholandi. **Struktur model** – til birliklarining ichki tartib va bo'linishini, ya'ni kategoriyalararo va kategoriyaviy chegaralarni aniqlovchi nazariy qurilma bo'lib, kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan tilning formallashtirilgan strukturasi ifodalash imkonini beradi.

Otning ma'no guruhi modellariga struktur model nuqtayi nazaridan sistem model sifatida yondashiladi. Shu bilan birga, otning yadro modeli bilan solishtirilganda, bu modellar struktur model maqomini egallaydi. Ishda mazkur modellar uchun **mikrosistem model** va **transpozitsion model** atamaları qo'llanildi. **Mikrosistem model** – tushunchalar iyerarxiyasida o'ziga xos ikki tomonlama pozitsiyaga ega bo'lgan model bo'lib, u bir tomondan yirik tushuncha tizimining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lsa, boshqa tomondan o'z tarkibida kichik tushunchalar va elementlarni mujassamlashtiradi. Ya'ni, mikrosistem model – bu bir vaqtning o'zida yuqori darajadagi tushunchaga bog'langan va shu bilan birga, ichki tarkibiy bo'linishga ega bo'lgan ko'p qatlamli modeldir. Dissertatsiyada mikrosistem model va transpozitsion model atamaları bir xil mazmunni ifodalovchi sinonim tushunchalar sifatida ishlatildi.

Shuningdek, dissertatsiyada ot turkumi doirasida yadro model sifatida e'tirof etilgan 1 ta makrosistem model taklif qilindi. Bu model ot so'z turkumining paradigmatic va struktur jihatdan eng yirik va umumlashtiruvchi qurilmasi sifatida talqin qilinadi. Atoqli otlar hamda sanalmaydigan atoqli otlarning modellariga esa teng qiymatli struktur milliy modellar maqomi berildi. Ular makrosistem model tarkibida, leksik-semantik va grammatik xususiyatlar asosida mustaqil struktur birliklar sifatida shakllantirilgan. Izlanishlar va lingvostatistik tahlil natijasida ot so'z turkum doirasida jami 37 ta model mavjudligi aniqlandi.

Bobning “**Ot turkumida semantik maydon modellari**” deb nomlangan ikkinchi faslida semantik maydon tushunchasining mohiyatini tashkil etuvchi “belgi” va “ramz” o'rtasidagi chegaralarni aniqlash, kishilar ongidagi leksemalarni muayyan qonuniyatlar asosida birlashtirish hamda ushbu birlashtirish jarayonida o'zbek tili milliy korpusi uchun lingvistik ta'minot sifatida tilning leksik-semantik tizimini modellashtirish masalalari atroflicha yoritilgan.

Tilga tizim sifatida yondashish, til va nutq munosabatidagi dialektik kategoriyalarni farqlash cheksiz paradigmalar yig'indisini tashkil etuvchi semantik maydonni ulkan sistemaviy hudud sifatida tadqiq etishga olib keladi. Ma'lumki,

semantik maydon atamasi ilk bor Y.Trir tomonidan ishlatilgan. U bu atama ostida “tushunchalar maydoni yoki doirasi”ni nazarda tutgan. O‘zbek tilshunosligida esa semantik maydon haqidagi qarashlar A.Nurmonov, H.Ne‘matov, E.Begmatov, R.Rasulov, Sh.Iskandarova, O.Bozorov, B.Qilichev, A.Sobirov, I.Madrahimov kabi atoqli tilshunos olimlarning izlanishlarida muhim o‘rin egallaydi.

Ot turkumiga mansub paradigmalarda o‘xshash va ayrim farqli leksemalar birlashadi, farqli belgilar o‘xshashlikni inkor eta olmaydi. Masalan, *hayvonlar, daraxtlar, mashinalar* – bular alohida olingan paradigmalaridir. Ular jamiyat a‘zolari ongida mavjud bo‘lib, kompyuter dasturlari xotirasida moddiylashadi. Buni hayvonlar misolida ko‘rib chiqamiz: til egalari ongida umumiylik, mohiyat, imkoniyat sifatida saqlangan *bo‘ri, ayiq, she‘r, sigir, mushuk, echki* kabi zoonimlar kompyuter xotirada [  $Ot^{t-zoo}$  ] model ko‘rinishida umumlashtiriladi.

Dissertatsiyada zoonimlar umumiy bir sinf – ekstensional sifatida [  $Ot^{t-zoo}$  ] milliy modeli tarkibiga, shuningdek, ziddiyatli belgilari asosida ichki paradigma – intensionallar sifatida yovvoyi hayvonlar – [  $Ot^{t-zoo}_{yovvoyi}$  ] hamda uy hayvonlari – [  $Ot^{t-zoo}_{uy}$  ] milliy modellari tarkibiga kiritilishi asoslangan. O‘zbek tilining semantik maydonida bunday uyalar juda ko‘p. Jumladan, P.Safarova uy hayvonlaridan bir qancha LMGlarni ajratadi<sup>50</sup>. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, dissertatsiyada semantik maydondagi boshqa paradigmalarni ham mazkur yondashuv asosida modellashtirish mumkinligi asoslangan.

Dissertatsiyada paradigma a‘zolari yosh, jins va tur xususiyatlari nuqtayi nazaridan alohida modellashtirilgan. Xususan, gender belgisi asosida *baytal, biya, jiyron...* [  $Ot^{t-zoo}_{ot-(a)}$  ]; *ayg‘ir, saman, yo‘rg‘a, yobu, to‘riq, bedov...* [  $Ot^{t-zoo}_{ot-(e)}$  ] milliy modeli tarkibiga kiritilgan. Shuningdek, vazifadoshlik va butun-qism munosabatiga asoslangan paradigmalarni modellashtirishga ham e‘tibor qaratilgan: *o‘pka, bo‘g‘iz bo‘shlig‘i, un paychalari, og‘iz bo‘shlig‘i, tanglay, til, tish, milk, lablar* kabi nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etuvchi birliklar [  $Ot^{t-V}_{nutq}$  ] modeli tarkibida vazifadosh paradigma sifatida talqin etilgan; *yeng, yoqa, tugma, etak, jiyak, astar* kabi kiyim elementlari esa [  $Ot^{a-\oplus}_{kostum}$  ] modeli doirasida butun-qism munosabatiga asoslangan paradigma tarkibida tahlil qilingan.

Tadqiqotda darajalanish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Paradigma a‘zolarining darajalanishi o‘zbek tilshunosligida S.G‘iyosov, R.Safarova, M.Narziyeva, M.Fayzullayev, O.Bozorov, A.Sobirov, O.Bozorov, I.Madrahimov<sup>51</sup> kabi olimlar tomonidan ilgari surilgan. Ular paradigma doirasida ichki gradual chiziqni aniqlab, bosh ma‘nodan ijobiy yo‘nalishda [  $\rightarrow$  ] hamda salbiy yo‘nalishda

<sup>50</sup> Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.113.

<sup>51</sup> Гиясов С.Т. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983.; Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1987.; Нарзиева М. Семантическая структура имен существительных возрастной характеристики лица в узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Тошкент, 1992.; Файзуллаев М. Сравнительно-типологические особенности лексико-семантических групп глаголов психического состояния в русском и узбекском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1994.; Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. –Тошкент, 1997. – Б. 23–30.; Собиров А. Ўзбек тили лексикасининг систем-структур тадқиқи. Монография. – Ташкент: Booknomy print, 2022. – Б. 173.; Madrahimov I. O‘zbek tilida lingvistik tasnif metodologiyasi. Filol. fan. d-ri. ...diss. avtoref. –Toshkent, 2024. – Б. 37.; Bozorov O. Lingvistik model // O‘zbek tili va adabiyoti. 2008. № 4. – В. 56.

[ ← ] siljish orqali kuchayish darajasini chizma-model asosida ko'rsatadi. Bundan tashqari, ishda *individ* → *chaqaloq* → *go'dak* → *bola* → *o'smir* → *o'spirin* → *yigit* → *qiz* → *juvon* → *ayol* → *kampir* kabi nominal birliklarning darajali munosabati [  $\text{Ot}_{\text{yosh}}^{\uparrow}$  ] modeli asosida ifodalangan. Borliq elementlarini milliy modellashtirish jarayonida mazkur yondashuvga tayanish masalasi o'rta tashlangan.

Otning semantik maydonida sinonimiya (ma'nodoshlik) hodisasi o'zbek tilshunosligida keng ko'lamli o'rganilgan leksik paradigmalardan biri hisoblanadi. Tilshunos olimlar sinonim paradigmalarning shakllanishida so'zga asos bo'lgan idrok obyekti – denotat, mazmuniy tushuncha – signifikat hamda ularning ifodasi – leksemani umumiy tarzda hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv asosida *vatan*, *diyora*, *yurt*, *maskan*, *go'sha*, *mamlakat*, *o'lka* kabi sinonimik qator tahlil qilingan bo'lib, bu yerda *vatan* so'zi denotat, "tug'ilib o'sgan joy" ma'nosi signifikat, *diyora*, *yurt*, *maskan*, *go'sha*, *mamlakat*, *o'lka* leksemalari esa ifoda vositalari sifatida talqin etiladi. Ushbu leksemalar o'zbek tili milliy korpusining lingvistik ta'minoti sifatida [  $\text{Ot}_{\text{vatan}}^2$  ] milliy modeli doirasida bir butun paradigmatic tizimni tashkil etadi.

H.Nematov va R.Rasulovlarning fikricha, sinonim so'zlar semantik jihatdan salbiy va ijobiy bo'yoqqa ega bo'lishi bilan birga, bo'yoqdorlik xususiyati e'tiborga olinmagan neytral ma'nodagi birliklarni ham qamrab oladi. Ularning ta'kidlashicha, sinonimik qator ichida salbiy va ijobiy guruhlariga mansub leksemalar orasida darajali ziddiyatlar ham kuzatiladi. Masalan, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *turq*, *chehra*, *oraz*, *jamol* sinonimik qator tarkibida *bet*, *aft*, *bashara*, *turq* leksemalari salbiy bo'yoqqa ega bo'lib, [  $\text{Ot}_{\text{-yuz}}^2$  ]; *chehra*, *oraz*, *jamol* leksemalari ijobiy bo'yoqqa ega bo'lib, [  $\text{Ot}_{\text{yuz}\rightarrow}^2$  ] milliy modeli tarkibiga namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyada sinonimlarning semantik, uslubiy va funksional xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan milliy modellar ham tahlil qilingan. Xususan, *yuz*, *bet*, *aft*, *bashara*, *turq*, *chehra*, *oraz*, *jamol* kabi sinonimik qator uchun [  $\text{Ot}_{\leftarrow\rightarrow}^{2\uparrow}$  ] yoki [  $\text{Ot}_{\text{-yuz}\rightarrow}^{2\uparrow}$  ] milliy modeli tavsiya etilgan.

Bobning uchinchi fasli "**Atoqli otlar alohida tizim sifatida**" deb nomlanadi. Ushbu faslda olamning lingvistik manzarasini tashkil etuvchi atoqli otlar tizimida kuzatiladigan tranonimizatsiya hodisasi milliy modellar asosida tahlil qilinadi va uning paradigmatic xususiyatlari ochib beriladi.

O'zbek onomastikasining ko'lami nihoyatda keng bo'lib, bu atoqli otlar soni va ularning turli guruhlariga ajratilishi bilan izohlanadi. Jumladan, *antroponimlar* – kishilarning atoqli nomlari [  $\text{Ot}^{\text{A-antro}}$  ]; *toponimlar* – geografik obyektlarning atoqli nomlari [  $\text{Ot}^{\text{A-topo}}$  ]; *teonimlar* – xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari [  $\text{Ot}^{\text{A-teo}}$  ]; *zoonimlar* – laqablar, hayvonlarga qo'yiladigan atoqli nomlar [  $\text{Ot}^{\text{A-zoo}}$  ]; *gemeronimlar* – ommaviy axborot vositalari nomlari [  $\text{Ot}^{\text{A-gemero}}$  ]; *mifonimlar* – xayoliy-to'qima obyektlar nomlari [  $\text{Ot}^{\text{A-mifo}}$  ] kabilar.

Ma'lumki onomastik birliklar ichida antroponim – ismlar alohida ajralib turadi. Ular shaxsiyatning o'ziga xosligi va individual identifikati bo'lib, insonni jamiyatga bog'lovchi muhim ko'prik va millatini ifodalovchi belgidir. Masalan, erkak ismlarida birinchi komponent sifatida *Muhammad*, *Abdu* kabi elementlar, ikkinchi

komponent sifatida *din, bek, jon, boy* kabi qo‘shimchalar uchraydi. Ayol ismlarida esa birinchi komponent sifatida *gul, zulf, oy, dil* so‘zlari, ikkinchi komponent sifatida *bonu, sanam, niso, xon* qo‘shimchalari keng tarqalgan:

*Muhammadaziz, Muhammadamin, Muhammadyusuf, Muhammadsodiq, Muhammadshukur, Muhammadali* kabi ismlar [  $\text{Ot}_{\text{Muhammad}+}^{\text{A-antro}}$  ]; *Abdusamad, Abdulaziz, Abdurashid, Abdurauf, Abdujalil, Abdukarim, Abdumo‘min, Abdushukur, Abdumajid* kabi ismlar [  $\text{Ot}_{\text{Abdu}+}^{\text{A-antro}}$  ]; *Alibek, Nurlibek, Ulug‘bek, Oybek, Norbek, Elbek, Durbek, Tolibek, Risqbek, Jo‘rabek* kabi ismlar [  $\text{Ot}_{+\text{bek}}^{\text{A-antro}}$  ]; *Gulsanam, Gulchehra, Gulhayo, Gulbahor, Gulnoza, Gulmira, Gulida, Gulzira, Gulzoda, Gulshan, Guljamol* kabi ismlar [  $\text{Ot}_{\text{gul}+}^{\text{A-antro}}$  ]; *Mehriniso, Zebiniso, Oyniso, Shahriniso, Xayriniso, Baxtiniso, Ulniso, Matniso* kabi ismlar [  $\text{Ot}_{+\text{niso}}^{\text{A-antro}}$  ] milliy modelida ifodalanadi.

Insonlarning atoqli oti tarkibida hayvon nomlari ham ishlatiladi va bu ko‘pincha ramziy ma‘noga ega bo‘ladi: *Shermuhammad, Arslonbek, Po‘latbulbul* kabi ismlar [  $\text{Ot}_{\text{zoo}+}^{\text{A-antro}}$  ] yoki [  $\text{Ot}_{+\text{zoo}}^{\text{A-antro}}$  ] modellari orqali ifoda etiladi. Toponimlarda ham [  $\text{Ot}_{+\text{obod}}^{\text{A-topo}}$  ] modeliga mansub bo‘lgan *Yashnobod, Mirobod, Xalqobod, Mirzobod, Dehqobod* kabi ko‘plab joy nomlari uchraydi. Shu bilan birga, ikkinchi qismi atoqli ot bo‘lgan *Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya, Shimoliy Amerika, Ko‘hna Urganch, Yangi Choshtepa* kabi joy nomlari [  $\text{Ot}_{\text{t}\sim\text{A}}^{\text{A-topo}}$  ] modeliga umumlashtiriladi.

Ajdodlarimiz azaldan shaxs sifatlarining birlik sifatida ifodalanishiga alohida e‘tibor qaratganlar. Ular farzandining yaxshi yashashi va o‘zidagi qobiliyatlarni to‘liq shakllantira olishini tilab, yaxshi ism tanlashga intilganlar. Masalan, *Qobil, Iqbol, Solih, Soliha, Siddiq, Mo‘min* kabi. Yana shunday ismlar borki, “Yaxshi niyat – yorti mol” maqoliga ishonch, ko‘ngildagi orzu-umid va ma‘lum bir maqsad bilan qo‘yiladi. Masalan, *To‘xtasin, Mustahkam, Ulbo‘lsin, O‘lmas, O‘lmasoy, Turg‘un, Anora, Nortoy, Norposhsha* kabi. Birinchi guruhdagi ismlar farzandga bo‘lgan yaxshi tilak<sup>52</sup> sifatida tilak kategoriyasi [  $\text{Ot}_{\text{istak}}^{\text{A-antro}}$  ]; ikkinchi guruh esa o‘z orzusiga yetishish niyati va maqsadni anglatgan holda niyat kategoriyasi [  $\text{Ot}_{\text{niyat}}^{\text{A-antro}}$  ] milliy modeliga kiradi. Bu kabi konseptual modellar, nafaqat, o‘zbek ismlarida, balki boshqa xalqlarga mansub ismlarda ham tarqalgan. Nemis, ingliz, fransuz kabi yevropa xalqlari o‘ziga xos shakl va mazmunda ifodalashsa, qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz kabi turkiy xalqlarda o‘zbek ismlariga o‘xshashlik ko‘p uchraydi. Bu xalqlar madaniyatining mushtarakligi bilan bog‘liq.

O‘zbek tilshunosligida toponimik qoliplar ham katta qatlamga ega. Jumladan, nekronim joylashgan hudud nomlari, o‘sha hududda yashagan aziz-avliyolar ismlari, rivoyat va afsonalar bilan bog‘liq nomlarning tranonimizatsiyasi kuzatiladi. Bunday hollarda hudud nomi bilan bog‘liq nekronimlar [  $\text{Ot}_{\text{topo}}^{\text{A-nekro}}$  ]; aziz-avliyolar nomi bilan bog‘liq nekronimlar esa [  $\text{Ot}_{\text{antro}}^{\text{A-nekro}}$  ] modeliga umumlashtiriladi.

Dissertatsiyada osmon jismlarining atoqli otlarida tranonimizatsiya hodisasining kuzatilishi modellar orqali asoslangan. Jumladan, osmon jismining

<sup>52</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II-III jildlar, – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2023. – B. 556.

o‘simlik nomiga [  $Ot_{kosmo}^{A-fito}$  ]: *Sunbula* (*burj nomi*) kabi; hayvonlarning nomi osmon jismi nomiga [  $Ot_{zoo}^{A-kosmo}$  ]: *Asad*, *Qisqichbaqa*, *Katta ayiq*, *Kichik ayiq* kabi; osmon jismining nomi insonlar ismiga [  $Ot_{kosmo}^{A-antro}$  ]: *Bahrom* (Mars), *Nohid* (Venera), *Shams* (Quyosh) kabi; afsona va miflar nomi osmon jismining nomiga ko‘chishi [  $Ot_{mifo}^{A-kosmo}$  ]: *Temir qoziq*, *Yetti og‘ayni*, *Egizaklar* kabi misollar bilan ifodalangan. Shu tariqa ular yangi invariant sifatida alohida modellarda berilgan.

Ma‘lumki, transnimizatsiya hodisasi ergonimlarga ham xos. O‘zbek tilshunosligida ergonimlar M.Saparniyazova tadqiqotining obyekti bo‘lgan<sup>53</sup>. U ergonimlarni modellashtirishning bir qator tendensiyalari, jumladan, mahalliy, o‘zga madaniy, trans-hududiy modellar haqida mulohaza yuritadi, biroq ergonimlarni milliy modellashtirish masalasiga batafsil to‘xtalmaydi. Mazkur dissertatsiyada esa savdo, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish obyektining nomi antroponim, toponim, kosmonim va boshqa atoqli otlardan hosil bo‘lishi transpozitsion modellar orqali tadqiq etiladi. Masalan, “*Siyovush trans omad*” MChJ, “*Zevs*” mashina ta‘mirlash shaxobchasi uchun [  $Ot_{mifo}^{A-ergo-antro}$  ] milliy modeli tavsiya etilgan.

“**Otning grammatik paradigmalarini modellashtirish tamoyillari**” deb nomlangan uchinchi bobda ot so‘z turkumiga mansub so‘z shaklining nutq zanjiridagi tarqalishi tahlil qilinib, otning gap strukturasi modellashtirishdagi roli ochib beriladi. Egalik, kelishik va son kategoriyalari milliy modellar orqali ifodalanadi. Shu bilan birga, grammatik ko‘rsatkichlar, so‘z birikmasi hamda gapning eng kichik primitiv modeli – gap bo‘laklari konstruksiyalari ot turkumi misolida chuqur tadqiq etiladi.

Bobning birinchi fasli “**Otning grammatik kategoriyalari modellari**” deb nomlangan. Otlarda son kategoriyasining bir qator shakllarga egaligi sababli morfologik yo‘l bilan hosil qilingan ko‘plik shaklidagi otlarni modellashtirishda affiks-modellarni qo‘llash maqsadga muvofiq. **Affiks-model** – o‘zbek tili morfologiyasida bir so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash vazifasini bajaruvchi affiks (qo‘shimcha)ning o‘zgarish shaklda modelga ko‘chishidir. Masalan, o‘zbek tilida [ **-lar** ], ingliz tilida [ **-s** ], [ **-es** ] kabi affikslar affiks-model sifatida qaraladi va ular birlik shaklidagi ot modelining koeffitsiyentida aks etadi. Natijada morfologik usul bilan yasalgan ko‘plik shakldagi otning xalqaro modellari [ **N<sub>s</sub>** ], [ **N<sub>es</sub>** ], milliy modeli [ **Ot<sub>lar</sub>** ] ko‘rinishida ifodalanadi.

Dissertatsiyada otning son kategoriyasi milliy modellarining lingvostatistik tahlili asosida o‘zbek tilida 1 ta; ingliz tilida 13 ta; rus tilida esa 25 ta morfologik son kategoriyasi modellarining mavjudligi aniqlangan hamda o‘zbek tilida noto‘g‘ri ko‘plik shaklining mavjud emasligi asoslangan. Xususan, *hol-ahvol*, *faqir-fuqaro*, *valad-avlod*, *taraf-atrof*, *haq-huquq*, *xalq-xaloyiq*, *shayx-mashoyix*, *nabiy-anbiyo*, *she‘r-ash‘or*, *tolib-talaba*, *shoir-shuaro*, *kabir-akobir*, *xulq-axloq* kabi o‘zlashmalar birlikdagi ot modeli tarkibiga kiritilgan.

Dissertatsiyada *xalq*, *xaloyiq*, *lashkar*, *armiya*, *olomon*, *poda*, *uyur*, *suruv* kabi jamlovchi otlar [ **Ot<sup>l</sup>** ]; *un*, *yog‘*, *tuz*, *bulut*, *yomg‘ir*, *suv* kabi donalab sanalmaydigan

<sup>53</sup> Saparniyazova M. O‘zbek tili ergonimlarining struktur-semantik, lingvomadaniy va pragmatik tadqiqi: Filol. fan. d-ri. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 240 b.

aniq otlar [  $\text{Ot}_{\text{-lar}}^{\text{a-jk}}$  ]; atoqli otga qo‘shilgan [ **-lar** ] affiksining ko‘plik ma’nosini ifodalashi [  $\text{Ot}_{\text{-lar}}^{\text{A-jk}}$  ]; nutq situatsiyasiga ko‘ra jamlash, umumlashtirish ma’nolarini ifodalovchi aniq otlar [  $\text{Ot}^{\text{a-P|jk}}$  ] modelida ifoda etilib, jamlik kategoriyasi modellari sifatida keltirilgan. Bundan tashqari, *sevinch, ko‘ngil, havo, jannat, hasrat* kabi mavhum otlarga; *yurak, bosh, til* kabi yakka predmetni hamda *ko‘z, quloq, oyoq, etik, tufli* kabi juft predmetni bildiruvchi aniq otlarga [ **-lar** ] affiksining qo‘shilishi orqali grammatik darajalanish hosil qilingan va bu kabi uslubiy ma’no ifodalovchi mavhum otlar [  $\text{Ot}_{\text{-lar}}^{\text{m-dk}}$  ]; aniq otlar [  $\text{Ot}_{\text{-lar}}^{\text{a-dk}}$  ] modeliga jamlangan.

Dissertatsiyada ko‘plik shaklidagi otlarning leksik-semantik va aralash usullar bilan hosil qilinishi leksik hamda affiks-modellar munosabatida ifodalanadi. Jumladan, *ko‘p odam//ko‘p odamlar* kabilar [  $\text{R}^{\text{m}} \rightarrow \text{Ot}_{\text{-lar}}$  ]; *barcha odam//barcha odamlar* kabilar [  $\text{O}^{\text{be}} \rightarrow \text{Ot}_{\text{-lar}}$  ]; *qancha-qancha odam//qancha-qancha odamlar* kabilar [  $\text{O}_{2x}^{\text{s}} \rightarrow \text{Ot}_{\text{-lar}}$  ]; *katta-katta uy//katta-katta uylar* kabilar [  $\text{Sf}_{2x} \rightarrow \text{Ot}_{\text{-lar}}$  ]; *qop-qop bug‘doy//qop-qop bug‘doylar* kabilar [  $\text{Ot}_{2x} \rightarrow \text{Ot}_{\text{-lar}}$  ] formulalarida ko‘rsatiladi. Ushbu modellar boshqa pozitsiyada sintaktik konstruksiyalar, xususan, so‘z birikmasi modelining qurilish materiali ekanligi ta’kidlanadi.

Bundan tashqari, egalik affiksini olgan so‘zning gapda qaratqich kelishigidagi ot bilan grammatik aloqaga kirishib, shaxs va sonda moslashishi hamda kishilik olmoshi va otning shunday moslashuvi natijasida moslashuv munosabatli so‘z birikmasini hosil qilishi alohida ta’kidlanadi. Kishilik olmoshi va egalik affiksi moslashuvining [  $\text{O}^{\text{sh1.2.3+qk}} \rightarrow \text{Ot}^{\text{1.2.3sk+ek}}$  ] milliy modeli ingliz tilidagi *egalik olmosh-sifatlarining* modeliga solishtiriladi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “**Otlarning tobelik munosabati modellari**” deb nomlangan. Ushbu faslda otning so‘z birikmasidagi mavqeyi modellar vositasida ko‘rsatilib, turli misollar bilan asoslangan.

Ma’lumki, so‘z birikmasi modellari tobe va hokim qismlar munosabati hamda ularning muayyan turkumga mansubligi kabi shakllarga ega. Hatto, biriktiruvchi elementlar va turli grammatik ko‘rsatkichlar ham model shaklida muhrlangan. Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilida tobe va hokim bo‘lakning o‘rni qat’iy: tobe so‘z hokim so‘zdan oldin joylashadi. Birikma komponentlarining sintaktik aloqasini ko‘rsatuvchi tobe so‘z [ **T** ], hokim so‘z [ **H** ] shaklida, ularning o‘zgarma pozitsiyasi esa [ **T** → **H** ] milliy modelida ifodalanadi. Bu o‘zbek tilining leksik zaxirasidagi so‘z birikmalarining umumiy modelidir. Masalan, *uyimizning tomi, akamning ishxonasi, ko‘chaning boshi* kabi so‘z birikmalari uchun [  $\text{Ot}^{\text{qk}} \rightarrow \text{Ot}^{\text{ek}}$  ] modeli invariant hisoblansa, boshqa pozitsiyada [ **Sf** → **Ot** ] shaklidagi modellar uchun [ **T** → **H** ] ham umumiylikni ifodalaydi. Demak, so‘z birikmasi komponentlarining o‘rni o‘zgarma bo‘lib, ularning leksemalar bilan to‘ldirilishi o‘zgaruvchanlikni taqozo etadi. Misol uchun, *onamlarning aytganlari, bolalarning o‘qiyotgani* kabi so‘z birikmalari modeli [  $\text{TOt}^{\text{qk}} \rightarrow \text{HSd}^{\text{ek}}$  ] yoki [  $\text{TOt}_{\text{-ning}} \rightarrow \text{HSd}_{\text{-i}}$  ] ko‘rinishida bo‘lib, ular hokim so‘z sifatdosh, tobe so‘z ot bilan ifodalangan har qanday moslashuv munosabatli so‘z birikmasining milliy modeli hisoblanadi.

O‘zbek tilida *Navoiy kutubxonasi, Bobur bog‘i, Toshkent shahri, iyul oyi, o‘zbek xalqi, kuz fasli, vatan tuyg‘usi, mehnat daftarchasi* kabi birikmalar

mazmunan atalganlik va umumdan ajralganlik ma'nosini ifodalashi bilan birga, muayyan jinsdagi predmetning turi asosida ham birlashtiriladi. S.Nazarova bu kabi birikmalarni [ **Ob.k~Oe.k** ] = **SB** lisoniy-sintaktik qolipida ifodalaydi<sup>54</sup>. Shu tariqa u tur belgisi – jins tuzilishidagi so'z birikmasini qaratqich-qaralmish tuzilishidagi so'z birikmasidan ajratib ko'rsatadi. Dissertatsiyada *Navoiy kutubxonasi, Bobur bog'i, Toshkent shahri* kabi atoqli ot (tur) – turdosh ot (jins) tuzilmasidagi birikmalar [ **Ot<sup>A</sup> ~ Ot<sup>t-ek</sup>** ]; *iyul oyi, o'zbek xalqi, kuz fasli, ichimlik suvi, vatan tuyg'usi, mehnat daftarchasi* kabi turdosh ot (tur) – turdosh ot (jins) tuzilmasidagi birikmalar [ **Ot<sup>t</sup> ~ Ot<sup>t-ek</sup>** ] modeliga umumlashgan. Bu kabi birikmalarda tobelik munosabati uzilib, atalganlik va mo'tadillashish (ta'kid bizniki – Sh.Z) munosabati yetakchilik qiladi.

Bitishuv munosabatli so'z birikmasi ham turli leksemalar bilan ifodalanadi. Jumladan, *yangi to'n, chiroyli gul* [ **TSf → HOt** ]; *o'sha bog', shu kishi* [ **TO → HOt** ]; *do'stona munosabat, sharqona ohang* [ **TR → HOt** ]; *to'rtinchi fasl, beshinchi maktab* [ **TR → HOt** ]; *pishgan gilos, singan umid* [ **TSd → HOt** ] modeliga ega.

O'zbek tilida so'z kontekstdagi pozitsiyasiga qarab turli mohiyatni anglatishi kuzatiladi. Masalan, *mis qozon, yog'och qoshiq, sopol kosa, oltin soat* kabi birikmalar dissertatsiyada [ **TSf<sup>P</sup> → HOt** ] modeli bilan ifodalangan. Bu yerda, [ **P** ] tobe qismdagi so'zning o'z doirasidan chiqib, matndagi sintaktik-semantik pozitsiyasini ko'rsatuvchi pozitsion model sifatida talqin qilinadi. **Pozitsion model** – ma'lum bir so'z turkumiga mansub so'zning matn kontekstidan kelib chiqib, boshqa bir so'z turkumi sifatida ishlatilishini ifodalovchi modeldir.

S.Nazarova muayyan modda – ashyodan yasalgan predmet ma'nosidagi birikmalarni [ **Om – a~On – b** ] = **SB** lisoniy-sintaktik qolipida ifodalashni taklif etadi<sup>55</sup>. Bizningcha, bu kabi birikmalarning komponentlarida tobelanish munosabati saqlangani uchun mo'tadillashuvni ifodalovchi [ **~** ] belgisi o'rniga [ **→** ] tobelanish modelini qo'llash maqsadga muvofiq.

Shaxsning tavsifiy belgisi sifatida yuzaga chiqadigan *professor Salimov, mayor Rustamov, qo'shni kampir, tilshunos olim, tikuvchi qiz, sinfdosh yigit* kabi izohlovchi-izohlanmish munosabatli birikmalarni S.Nazarova shaxsning biror belgisiga ko'ra tasnifi deb ataydi va ularni [ **Osh~Osh** ] = **SB** lisoniy-sintaktik qolipiga umumlashtiradi<sup>56</sup>. Shu asosda dissertatsiyada *professor Salimov, mayor Rustamov* kabi turdosh ot (izohlovchi) – atoqli ot (izohlanmish) tuzilmasidagi birikmalar [ **Ot<sup>t</sup><sub>sh?</sub>~Ot<sup>A</sup><sub>sh?</sub>** ]; *qo'shni kampir, tilshunos olim, tikuvchi qiz, sinfdosh yigit, uchuvchi ayol* kabi turdosh ot (izohlovchi) – turdosh ot (izohlanmish) tuzilmasidagi birikmalar [ **Ot<sup>t</sup><sub>sh?</sub>~Ot<sup>t</sup><sub>sh?</sub>** ] modeliga umumlashtirilgan.

Bobning so'nggi – “**Otning kompozitsion milliy modellari**” deb nomlanuvchi faslida otning gap tarkibidagi vazifalari – gap bo'laklari sifatida konstruktiv hosila tarzida namoyon bo'lishi tahlil qilinadi va ularning milliy modellari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, ega uchun [ **E** ], kesim uchun [ **K** ],

<sup>54</sup> Назарова С. Изохловчили бирикмалар.//Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги. – Тошкент, 2004. – Б. 96–100.

<sup>55</sup> Назарова С. Изохловчили бирикмалар.//Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги. – Тошкент, 2004. – Б. 96–100

<sup>56</sup> Назарова С. Изохловчили бирикмалар.//Айюб Ғулом ва ўзбек тилшунослиги. – Тошкент, 2004. – Б. 96–100.

to'ldiruvchi uchun [ T ], aniqlovchi uchun [ A ], hol uchun [ H ] kabi belgilanishlar invariant milliy model sifatida taklif etiladi.

Gapda bosh bo'laklar (ega va kesim)ning munosabati minimal gap sanalib, formal mantiq qoidalariga ko'ra bunday gaplar konstruksiyasida ega va kesim modeli ishtirok etadi. Masalan: *Men yozyapman. U o'qidi.* Bu gaplarning egasi olmosh bilan ifodalangan bo'lib, [  $E_O \rightarrow K_F$  ] modeliga ega. Agar gapning egasi (subyekt) otga mansub so'z bilan ifodalansa, ularning modeli [  $E_{Ot} \rightarrow K_F$  ] ko'rinishida bo'ladi. Masalan: *Salima yozyapti. Karim o'qiyapti* kabi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklar bilan kengayishi turlicha ko'rinishda namoyon bo'ladi. Masalan, 1. *Biz universitetga keldik.* 2. *U ko'chada yuribdi* gaplarida hol kengaytiruvchi vazifasini bajarmoqda. Gaplarni tashkil etuvchi komponentlarning qaysi turkumga mansubligi, sintaktik birliklarning morfologik birliklar bilan munosabati [  $E_O + H_{Ot} \rightarrow K_F$  ] modelida aks etadi. Shu tariqa gap konstruksiyalarining eng sodda (primitiv) modeli ma'lum so'z turkumiga mansub gap bo'laklari modeli ekanligi oydinlashadi.

Ega har doim kesimga bog'lanib keladi. Masalan, 1. *Mashina yurdi.* 2. *Stanok ishladi.* Ushbu gaplar [  $E_{Ot} \rightarrow K_F$  ] qolipiga ega. Ega bosh kelishikdagi otdan tashqari, shu kelishikda turgan otlashgan so'zlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, 1. *Qimirlagan qir oshar.* 2. *Suvning shildir-shildiri eshitildi.*

Birinchi gapda otlashgan sifatdosh modeli [  $E_{Sd} \rightarrow H_{Ot} \rightarrow K_{Hn}$  ];

Ikkinchi gapda otlashgan taqlid so'z modeli [  $A_{Ot} \rightarrow E_{Ts} \rightarrow K_F$  ];

Ma'lumki, to'ldiruvchi gap qurilishida kesim bilan sintagmatik munosabatga kirishib, u talab etgan shaklda keladi. Masalan, 1. *Ra'no Salimadan chiroyli.* 2. *Kecha Salimani ko'rdim.* Birinchi gapda vositali to'ldiruvchi [  $E_{Ot} + T_{Ot} \rightarrow K_{Sf}$  ] modeliga, ikkinchi gapda vositasiz to'ldiruvchi [  $H_R + T_{Ot} \rightarrow K_F$  ] modeliga ega.

O'zbek tilshunosligida aniqlovchi [ A ] milliy modelini qo'llash maqsadga muvofiq. Masalan, *Samarqand – chiroyli shahar.* Bu gapda ot-kesim *shahar* so'zi bo'lsa, uning belgi valentligi aniqlovchi vazifasida voqelangan *chiroyli* so'zidir. Gapning modeli [  $E_{Ot} + A_{Sf} \rightarrow K_{Ot}$  ] ko'rinishida bo'ladi. U kesimning bo'sh o'rnini to'ldiruvchi bo'laklarning belgisini bildirib, sifatlovchi-sifatlanmish hamda qaratqich-qaralmish munosabatini yuzaga keltiradi. Masalan, 1. *Ochil buva o'tkir, qora ko'zli, serqosh, chiroyli yigit bo'lgan.* Gapda sifatlovchi-sifatlanmish munosabati berilgan bo'lib, uning tarkibidan [  $E_{Ot} + A_{Sf}^4 \rightarrow K_{Ot}$  ] milliy modelida beriladi. So'z birikmasi tahlilida: to'rtta bitishuv munosabatli [  $A_{Sf}^4 \rightarrow K_{Ot}$  ] so'z birikmasi hamda bitta ega-kesim moslashuvi – minimal gap [  $E_{Ot} \rightarrow K_{Ot}$  ] ajratiladi.

Ot turkumiga mansub so'z gapning qaysi bo'lagiga tegishli bo'lishidan qat'i nazar holat, payt, sabab, maqsad, miqdor kabi valentliklarga ham ega bo'ladi. Shu jihatdan u kesim bilan sintagmatik munosabatda bo'lib, gapda hol [ H ] (universal model – M) vazifasini bajaradi. Masalan, *Biz universitetga keldik.* Ushbu gapdagi *keldik* so'zida kesim ifodalangan bo'lib, universitetga so'zi o'rin valentligi sifatida voqelangan. Bu kabi gaplarning modeli [  $E_O + H_{Ot} \rightarrow K_F$  ] ko'rinishida bo'ladi.

Gapda holning kesim bilan sintagmatik munosabati boshqaruv munosabatli so'z birikmasi konstruksiyasiga ega. Masalan, *U Samarqanddan kecha keldi.* Ushbu gapda ot bilan ifodalangan o'rin holi ishtirok etgan bo'lib, bu kabi gaplar uchun

[  $E_O + H_{Ot} + H_R \rightarrow K_F$  ] modeli tavsiya qilinadi. Soʻz birikmasi tahlilida: bitta boshqaruv munosabatli [  $H_{Ot} \rightarrow K_F$  ]; bitta bitishuv munosabatli [  $H_R \rightarrow K_F$  ] soʻz birikmasi hamda minimal gap [  $E_O \rightarrow K_F$  ] modeli ishlab chiqiladi.

## XULOSA

1. Olamning lisoniy manzarasini anglashda til birliklarining sistemaviy-struktur ifodasi muhim oʻrin tutadi. Shu bois bugungi kun tilshunosligida olam elementlarini oʻzida aks ettiruvchi tilning ichki strukturasi, qoidalari va ularning real nutqdagi ifodalanish mexanizmlari, xususan, grammatik birliklarni modellashtirish masalalariga keng eʼtibor qaratilmoqda. Grammatik modellashtirish natijasida tildagi strukturaviy birliklar va ularning oʻzaro munosabatlari umumlashtirilib, real borliqdagi elementlarning inson tafakkuridagi konseptual koʻrinishi yaratiladi. Bu jarayonda leksik birliklar, grammatik qurilmalar, semantik tuzilmalar va pragmatik mazmun asosiy omil hisoblanadi.

2. Oʻzbek tili milliy korpusining morfologik analizatorini yaratishda dastlabki bosqich sifatida oʻzbek tilining elektron morfologik lugʻatini yaratish masalasi koʻrsatiladi. Keyingi bosqichda esa barcha qoʻshimchalar funksional belgilariga koʻra guruhlarga ajratilib, ularning oʻzbek tilidagi barcha mumkin boʻlgan mantiqiy bazasi shakllantiriladi. Bu nazariya otlarning leksik-semantik va grammatik paradigmalari modellashtirish zaruratini taqazo etadi.

3. Til birliklarini modellashtirish nutqiy hodisalarni til sistemasida umumlashtirish boʻlib, u umumiylik-xususiylik, invariant-variantlilik, substansiya-aksidensiya, oʻzgarmaslik-oʻzgaruvchanlik, mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik, sabab-oqibat, toʻplam-tasnif, kod-xabar, vizual-aktuallik, mavhumlik-aniqlik kabi dialektik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi. Olam dialektikasining asosini tashkil etuvchi bu qonuniyatlar til va nutq oppozitsiyasida voqelanadi.

4. Tilning barcha sath birliklari maʼlum ichki uzvlarning oʻzaro munosabatidan tashkil topgan umumiylik sanaladi. Oʻz navbatida, quyi sath birligi bir daraja yuqori sath birligining konstruktiv materialidir. Shu maʼnoda, sintaktik konstruksiyalarni eng yuqori darajali umumlashma sifatida eʼtirof etish lozim boʻladi.

5. Lingvistik obyektning belgilari modellashtirish uchun eng muhim va modellashtirish jarayonida eʼtibor qaratilishi muhim boʻlmagan belgilarga ajratiladi va eng muhim belgilar asosida uning qurilmasi yaratiladi. Bu modellashtirishning empirik tamoyilga asoslanganligini koʻrsatadi.

6. Til birliklari har bir til egasining ongida turli hodisalarda muhurlangan. Bu jarayonda til egalarining saviyasi, dunyoqarashi, bilimi, ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, jinsi hamda milliy-madaniy xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maʼnoda sezgi aʼzolarimizga berilgan “ayni bir xil” hodisalar ham har bir til egasining milliy-madaniy xususiyatlariga koʻra turli modellarga ega boʻladi. Bu esa har bir milliy til oʻzining milliy qoliplariga ega boʻlishi lozimligini tasdiqlaydi.

7. Soʻzlarni turkumlarga ajratish uzoq tarixga ega. Bunda bevosita kuzatishda berilmagan tashqi olamdagi narsa va hodisalarni ifodalovchi tushunchalarni keng maʼnoli kategoriyada belgilash, morfologik kategoriyalarning mavjudligi, sintaktik qurilmadagi pozitsiyasi va boshqa turkumdagi soʻzlar bilan moslashishi kabi

xususiyatlariga e'tibor qaratiladi. Shu nuqtayi nazardan so'z turkumlari olam dialektikasining eng yirik modeli hisoblanadi.

8. O'zbek tilshunosligida til birliklari modellarining lingvostatistik tahlili lingvistik ta'minot uchun aniq bitta yoki cheklangan modellarni emas, til birliklarini turli aspektlarda o'rganuvchi modellar zaxirasini tavsiya qiladi. O'zbek tili milliy korpusining avtomatik analizatorlari birlamchi modellarni tanlab oladi.

9. Atoqli otlarga mohiyat sifatida model deb qaraladi. Ular "bevosita kuzatishda berilgan" narsa-hodisani nomuhim belgilardan soqit qilish, eng muhim belgilarni aniqlash, solishtirish va umumlashtirish natijasida yaratiladi. Shuningdek, millat madaniyatining asosiy konseptlarini namoyon etishda hamda xalqlar madaniyatining mushtarakligini aks ettirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

10. Otning gapdagi vazifasini ko'rsatuvchi kompozitsion modellar morfologik modellar zanjirining sintaktik strukturada terilishidir. Bunda ot birliklari o'zining morfologik shakllari: *ko'plik, egalik, kelishik qo'shimchalari* bilan birga ma'lum bir funksiyani bajaradi va gap tuzilmasida muayyan sintaktik pozitsiyani egallaydi.

11. Paradigmalar jamiyat vakillari ongida fikriy modellar sifatida shakllanib, semantik maydon va olamning lingvistik manzarasini tashkil etadi. Ushbu konseptual butunliklar kompyuter dasturlarining lingvistik ta'minotida moddiylashtiriladi. Natijada borliq elementlarining paradigmatic butunligini tashkil etuvchi semantik maydon va olamning lingvistik manzarasi ulkan lingvistik bazaga aylanadi. Bu jarayon o'zbek tili milliy korpusini yaratishning muhim omillaridan biri sanalib, til materialining lingvistik jihatdan boyishini ta'minlaydi hamda sun'iy intellekt tizimlarida tilni chuqur o'rganish va qayta ishlash imkoniyatini kengaytirishi bilan xarakterlanadi.



**SCIENTIFIC COUNCIL PHD.03/04.06.2021.FIL.132.01 AT ON AWARDING  
ACADEMIC DEGREES AT KOKAND STATE UNIVERSITY**

---

**ANDIJAN STATE UNIVERSITY**

**ZARMASOV SHAKHBOZ SHAKHRIDDIN UGLI**

**PRINCIPLES OF MODELING PARTS OF SPEECH IN UZBEK LANGUAGE  
(on the example of the noun)**

**10.00.11 – Theory of language. Applied and computational linguistics.**

**ABSTRACT  
of the doctor of philosophy (PhD) dissertation in PHILOLOGY**

**Kokand – 2025**

**The topic of the doctor of philosophy (PhD) dissertation in philological sciences was registered with the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2023.3.PhD/Fil3703**

The dissertation was completed at Andijan State University.

The dissertation abstract is posted in three (Uzbek, English and Russian (resume)) languages on the website of the Academic Council ([www.qdpi.uz](http://www.qdpi.uz)) and on the information-educational portal «Ziyonet» on the address [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).

**Scientific advisor:** **Sobirov Abdulhay Shukurovich,**  
doctor of philological sciences, associat professor

**Official opponents:** **Abdurahmonova Nilufar Zaynobiddin qizi**  
doctor of philological sciences, associat professor

**Gaziyeva Maftuna Muhammadovna**  
doctor of philological sciences, docent


**Leading organization:** **Termiz state university**

The defense of the dissertation will take place at the meeting of Academic Council PhD.03/04.06.2021.Fil.132.01 on awarding academic degrees under Kokand State Pedagogical Institute on «03» 10 2025, at 9:00 o'clock. (Address: 150700, Kokand city, Turon street, 23. Tel: (99873) 542-38-38; fax: (99873) 542-11-43; e-mail: [quqondpi@umail.uz](mailto:quqondpi@umail.uz)).

Dissertation could be reviewed at information-resource center of Kokand State Pedagogical Institute (registration number 14). Address: 150700, Kokand city, Turon str., 23. Tel: (99890) 508-64-42; e-mail: [qdpi\\_arm@umail.uz](mailto:qdpi_arm@umail.uz)

The abstract of the dissertation was distributed on « 19 » september, 2025.

(Register protocol numbered 28 in « 03 » October, 2025)



**M.Khakimov**  
Chairman of the Academic Council on awarding academic degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

**R.A.Jorayeva**  
Secretary of the Academic Council on awarding academic degrees, philosophy doctor (PhD) on philological sciences, associate professor

**D.M.Jamoliddinova**  
Chairman of the Academic Seminar at Academic Council on awarding academic degrees, Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor

## INTRODUCTION (philosophy doctor (PhD) dissertation abstract)

**Relevance and demand for the dissertation topic.** In world linguistics, special attention has been paid to the issues of modeling the world of entities, the structure of linguistic phenomena and the creation of national models of grammatical categories. New theories in language research emerged on the basis of modern approaches to the field. As a result, in the second half of the 20th century, formalization began, and from the end of the 20th century and the beginning of the 21st century, linguistic modeling began to serve as a methodological basis for systematic research in linguistics. This ensured the development of such areas of linguistics as pragmatics, sociolinguistics, linguocultural studies, onomastics, cognitology and computer linguistics, and became of practical importance in raising the theory of linguistic modeling to a qualitative level.

In world linguistics, the main issue has become the scientific knowledge of the world, the optimization of human-machine communication, the creation of linguistic support for software materials. This has determined the need to use language units and thought experiments in analyzing them, and to interpret the model as an ideal object. A number of scientific and practical results have been achieved in the field of computer linguistics in language modeling: national language corpora, programs providing morphological, syntactic and semantic analysis of texts have been created, and the NLP (natural language processing) system<sup>57</sup> has been developed.

In Uzbek linguistics, computer programs aimed at solving the problems of integrating the language with modern communication devices, morphoanalyzers for automatic text analysis have been created, significant work has been done on natural language processing and the creation of its linguistic bases. Attention has been paid to the issues of “strengthening the position of the state language in modern information technologies and communications, ensuring its active integration”<sup>58</sup> and creating the linguistic support of the language corpus, studying general principles of modeling and developing linguistic models. However, the development of linguistic foundations of modeling, the creation of linguistic support for the national corpus of Uzbek language based on national models and the establishment of principles for modeling parts of speech of Uzbek language are among the urgent scientific tasks of today.

This dissertation to a certain extent serves the implementation of the tasks defined in the decrees of the President of the Republic of Uzbekistan PD-5850 of October 21, 2019 “On measures to radically increase the prestige and status of Uzbek language as the state language”, PD-6084 of October 20, 2020 “On measures to further develop Uzbek language and improve the language policy in our country”, PD-6097 of October 29, 2020 “On approval of the Concept of Science Development

---

<sup>57</sup> Jurafsky D., Martin J.H. *Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition with Language Models*, 3rd edition. Online manuscript released August 24, 2025. <https://web.stanford.edu/~jurafsky/slp3>.

<sup>58</sup> Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev PD-6084 dated October 20, 2020 “On measures for the further development of Uzbek language and improvement of language policy in our country”, // <https://lex.uz/docs/5058351>

until 2030”, PD-6198 of April 1, 2022 “On improving the public administration system for the development of scientific and innovative activities”, PD-6108 dated November 6, 2020 “On measures to develop the spheres of education and science in the new period of development of Uzbekistan”, PD-60 of January 28, 2022 “On the Development Strategy of new Uzbekistan for 2022-2026”, in the Resolution of the Cabinet of Ministers No. 139 of March 11, 2020 “On measures to further improve the effectiveness of fundamental and applied scientific research on Uzbek language and literature”, as well as in other relevant regulatory legal documents.

**Compliance of the research with the priority areas of development of science and technology of the republic.** This study was carried out in accordance with the priority direction of development of science and technology of the republic I. “Social, legal, economic, cultural, spiritual and educational development of an informed society and a democratic state, development of an innovative economy”.

**The degree of study of the problem.** The study of theoretical and methodological problems of linguistic support in world linguistics began in the 1960s: in this period, there was a transition from the “mechanical” stage to the “logical-linguistic” stage<sup>59</sup>. Theoretical foundations of morphological analysis were studied by S.Y.Toldova, T.Sadikov<sup>60</sup>, morphoanalysis features – by D.Rudolf<sup>61</sup>, The practical importance of morphoanalysis – by A.Ermakov<sup>62</sup>, morphological and syntactic text processing model – by I.Nojov<sup>63</sup>. Issues of constructing a morphoanalyzer in Turkic computational linguistics were illuminated in the work of scientists, such as G.Eryigit, E.Adali, A.Dibo, A.Sheymovich, J.Suleymanov, J.Suleymanov, R.A.Gulmullin, R.R.Gataullin<sup>64</sup>.

In world linguistics, language modeling has arisen at the syntactic level. In the 20th century, such scientists as E.Sapir, L.Bloomfield, R.Jacobson, N.Chomsky, A.Losev, Z.Harris, C.Hockett, S.Markus<sup>65</sup>, first used the concept of a “linguistic

---

<sup>59</sup> Соколов А.В. Автоматизация библиографического поиска / А.В.Соколов. – М.: Книга, 1981. – 167 с.

<sup>60</sup> Толдова С.Ю., Бонч-Осмоловская А.А. Автоматический морфологический анализ // Фонд знаний «Ломоносов». – М., 2011. [www.lomonosov-fund.ru/enc/ru/encyclopedia:0127430](http://www.lomonosov-fund.ru/enc/ru/encyclopedia:0127430); Садыков Т., Кочконбаева Б. Об оптимизации алгоритма морфологического анализа // Шестая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «Turklang-2018». (Труды конференции) – Ташкент, 2018. – 320 с.

<sup>61</sup> Rodolfe D. Computational Linguistic Text Processing: Lexicon, Grammar, Parsing and Anaphora Resolution. Nova Science Publishers, Inc. – New York, 2008. – P. 4–5.

<sup>62</sup> Ермаков А. Морфологический анализатор – основа поисковых систем // <https://www.kv.by/archive/index20041-54301.htm>

<sup>63</sup> Ножов И.М. Морфологическая и синтаксическая обработка текста (модели и программы) сегментации русского предложения. – М.: АКД, 2003. – 152 с.

<sup>64</sup> Eryigit G., Adali E. An affix stripping morphological analyzer for Turkish // Proceedings of IASTED International Conference ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND APPLICATIONS. February 16–18, 2004, – Austria. – P. 299–304.; Дыбо А.В., Шеймович А.В. Автоматический морфологический анализ для корпусов хакасского и древнетюркского языков / Научное обозрение саяно-алтая рецензируемый научный журнал, – № 2(08), 2014 (Периодичность – 2 раза в год. серия: Филология. Выпуск 2). – С. 9–31.; Сулейманов Д.Ш., Гильмуллин Р.А., Гатауллин Р.Р. Морфологический анализатор татарского языка на основе двухуровневой модели морфологии // Пятая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TurkLang 2017». – Труды конференции. В 2-х. Т 2. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 2017. – 327 с.

<sup>65</sup> Sapir E. Language an introduction to the study of speech. – New York, 1921. – 246 p.; Bloomfield L. An introduction to the study of language. – Amsterdam, 1933. – 292 p.; Jakobson R. Fundamentals of Language. – Berlin, – 91 p.; Хомский Н. Синтаксические структуры // Новое в лингвистике. Вып. 2. – М., 1962. – С. 412–527.; Лосев А.Ф. Введение в общую теорию языковых-моделей. – М., 1968. – С. 13–20.; Harris Z. Structural Linguistics. – Chicago, 1960, – 408 p. Hockett Ch. A course in modern linguistics. – New York, 1958. – 648 p.

model". Later, in the scientific works of such scientists as V.A.Vennikov, K.B.Baratoyev, B.G.Glinsky, A.I.Uyumov, I.B.Novik, V.A.Shtoff, Y.A.Zhdanov, E.V.Busalova, F.N.Gurbanov, V.A.Vennikov, Y.F.Kirov, L.N.Murzin, I.I.Revzin<sup>66</sup>, the general essence of the modeling method, the foundations of the model, its functions in scientific knowledge, and classification issues were investigated.

Research on modeling the syntactic level in Uzbek linguistics began in the 1970s and 1980s with the monographic work of A.Nurmanov<sup>67</sup>. In particular, the development of minimal models of simple sentences<sup>68</sup>, the systematic and structural study of complex sentences<sup>69</sup>, structural model of absence-presence features in a sentence<sup>70</sup>, manifestation of the dialectic of the general-particular at the linguistic level<sup>71</sup>, formal, positional and semantic models of word combinations<sup>72</sup>, in addition, units of the morphemic level<sup>73</sup> and the problems of modeling word formation were also studied in monographic terms. However, modeling of morphological units has not been the subject of special studies and is considered one of the complex, problematic issues awaiting solution.

The scientific researches of A.Pulatov, M.Makhmudov, M.Ayimbetov, S.Karimov, S.Rizayev, S.Mukhamedov, G.Dzhumanazarova, A.Babanarov, D.Urinboyeva, A. Norova and I.Kosimova<sup>74</sup> on lexicographic text processing and linguastatistical analysis in Uzbek computational linguistics deserve attention. Later

---

<sup>66</sup> Венников В.А. Теория подобия и моделирования. – М., 1986. – 489 с.; Киров Е.Ф. Теоретические проблемы моделирования языка. – Казань, 1989. – 265 с.; Мурзин Л.Н. Лингвистическое моделирование и деривация речевой деятельности // Деривация в речевой деятельности. – Пермь, 1988. – С. 52–62.; Ревзин И.И. Модели языка. – М.: Академии наук, 1962. – 194 с.

<sup>67</sup> Нурмонов А.Н. Проблемы системноисследования синтаксиса узбекского языка. – Ташкент, 1982. – 152 б.

<sup>68</sup> Курбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап курилишининг талкини: Филол. фан. д-ри. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 51 б.; Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик курилиш қолипи ва унинг нутқда воқеалари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 19 б.

<sup>69</sup> Сайфуллаева Р.Р. Ҳозирги ўзбек тилида кўшма гапларнинг формал-функционал талкини. – Тошкент: Фан, 1994. – 257 б.

